

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI
“Tarix o’qitish metodikasi” kafedrası

Norbekov Islombek

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**MAVZU: 6-SINF TARIX DARSIDA “KUSHON PODSHOLIGI” MAVZUSINI
O’QITISHDA QIYOSIY TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH**

Ilmiy rahbar:
Dots. Z.Hayitov

Navoiy – 2016

MAVZU: 6-SINF TARIX DARSIDA “KUSHON PODSHOLIGI” MAVZUSINI O’QITISHDA QIYOSIY TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH

Reja:

Kirish.

I-bob. Kushon podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyoti va tanazzuli.

1.1. Kushon podsholigining tashkil topishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi

1.2. Kushon podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti omillari

1.3. Kushon podsholigining tadqiqotchilar tomonidan o’rganilishi

II-bob. 6-sinf tarix darsida “Kushon podsholigi” mavzusini o’qitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish.

2.1. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligi oshirishning o’ziga xos xususiyatlari.

2.2. 6-sinf tarix darsida “Kushon podsholigi” mavzusini o’qitishda qiyosiy tahlil usuli tayyorlangan dars ishlanmasi.

Xulosa.

Adabiyotlar ro’yxati.

KIRISH

Bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda tarix fanining mazmun-mohiyati, tarixni o'rganish vositasida ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat va jamiyat oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga tarixga bo'lgan hurmat, vatanparvarlik kabi muhim vazifalarni amalga oshirish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki davrlardan oq mamlakatimiz tarixini chuqur tadqiq etish, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan yirik o'choqlarni, xususan, yirik saltanatlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini o'rganish, tadqiq etishga alohida e'tibor qaratildi.

Zero Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan o'lkamiz yodgorliklari, xalqimizning uzoq o'tmishdan qolgan boy ma'naviy meros, turli sohalarda amalga oshirilgan yutuqlar jihatidan boshqa madaniyatlardan qolishmasligini bugun biz guvohi bo'lib turibmiz. Biz tobora globalashuv jarayoni kuchayib borayotgan XXI asrda yashamoqdamiz. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment-bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avvalambor tarixni bilish- bu hayotiy zarurat¹. Albatta, biz boy tariximiz, ulug' ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Tariximiz-bitmas tuganmas xazina, biz uchun cheksiz g'urur manbaidir"².

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Tariximizni noyob yodgorliklari, ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri o'lkamizdir. Jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan Kushon davlati o'lkan sarhadlarga ega bo'lib, davlatning shahar va qishloqlarida savdo-sotiq, hunarmandchilik, qishloq xo'jalik sohalari rivojlangan. So'nggi yillarda olib borilgan

¹ Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oily saodatdir. T.: O'zbekiston. 2015 yil. -B.109.

² Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oily saodatdir. T.: O'zbekiston. 2015 yil. -B.116.

ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivoji tufayli keng hududlar o'troq aholi tomonidan jadallik bilan rivojlanadi. Kushonlar saltanatini dunyo xalqlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish, ularning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarixini yangi manbalar bilan boyitish olimlarimiz oldida turgan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan Kushon davlati tarixini yosh avlodni ongi-shuurigiga yetkazish, singdirish, yoshlarni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashda bu tarixiy davlatning o'rni beqiyosdir.

Tadqiqot mavzusining maqsad va vazifalari: So'nggi yillarda Markaziy Osiyo va qo'shni hududlarda olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar bu mintaqa Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutganligini ko'rsatuvchi ko'plab ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularga asoslanib, biz "Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi", "O'rta Osiyo sivilizatsiyasi", "Turon" yoki "Turkiston sivilizatsiyasi" kabi tarixiy tushunchalardan ilmiy tadqiqotlarda keng foydalana boshladik. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi O'zbekiston hududining ulkan Yevroosiyo mintaqasi markazida, muhim tranzit yo'llari kesishgan chorrahada joylashganligi tarixan belgilangan bo'lib bu vatanimizni kishilik tarixining ilk bosqichlaridayoq Sharq va G'arb dunyosi o'zaro muloqotga kirishadigan joy sifatidagi ahamiyatini belgilab berdi¹. Shu tufayli ham tarix fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida Vatanimiz tarixini jahon sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida

¹ Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. -T.: "Akademiya", 2008, -B.48.

o'rganish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda O'rta Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanib borishda Kushon davlatining mintaqaviy va trans-mintaqaviy iqtisodiy-madaniy aloqalar tizimini rivojlantirishdagi o'rni beqiyos bo'lgan. Bu saltanatni rivojlanish tendensiyalarini ilmiy o'rganish va tahlil qilib, yosh avlodga yetkazish asosiy maqsad sifatida gavdalanadi. Zero, jahon hamjamiyati tomonidan Kushon davlati misolida O'rta Osiyo tarixining ko'pgina muhim hodisalariga baho berishda, turli tarixiy davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi an'analarni aniqlashtirishda katta o'rin tutadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilish darajasini shartli ravishda ikki qismga ya'ni nazariy va metodik qismlarga ajratish mumkin. Mavzusini nazariy jihatdan yoritishda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlari, Prezidentimiz Islom Karimovning ma'ruza va nutqlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ishlab chiqilgan DTS, o'quv dasturlari va 6-sinf uchun "Qadimgi dunyo tarixi" darsligi¹, shuningdek, Kushonlar davrini ilmiy jihatdan tadqiq qilgan qator olimlar B. G. Гафуров, В.Я. Ставицкий, Г.А.Пугаченкова, Э.В. Ртвеладзе, Б.А.Литвинский, А.В. Седов, Э.В. Ртвеладзе, Sh.Pidayev, Azamat Ziyov, Q.Usmonov M.Sodiqov, S. Burhonova, T. G'. G'iyosovlarning mavzuga doir turli asarlari va o'quv qo'llanmalaridan keng foydalanildi². Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilarining o'tmish haqidagi bilimlarini o'stirish, ularda tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarix o'qitish usullari va metodikasi, zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ularni dars jarayonida qo'llash yuzasidan qator adabiyotlar va qo'llanmalar, jurnallar o'rganilib chiqildi.

¹ Kostetskiy V.A., Sagdullayev A.S. Tarix. Qadimgi dunyo.-T.: "Yangi yo'l poligraf servis" 2013.-B.192.

² Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. -М.: 1968; Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.40.; Ставицкий В.Я. Кушанская Бактрия, проблемы култура. -М.: 1977; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-T.:1978; Литвинский Б.А., Седов А.В. культи и ритуали кушанской Бактрии. -М.:1984.; Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.-B.368.; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. северная Бактрия-Тохаристан. -T.: 1990; Култура и исскуства древного Узбекистана (каталог виставки), кн. 1 и 2, -М.: 1991; G'iyosov T. G'. Qadimgi Hindiston tarixi, T., 2000.; Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. -T.: Iqtisod-moliya. 2006. B.69.

Maktabda tarix fanining o`qitilishi va o`qitish jarayonining o`rganilishi tarix o`qitish usullari fanini tashkil etadi. O`qitish jarayonining ob`yektiv suratda amal qiladigan o`z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va talim-tarbiya jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish maktabda tarix o`qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim kalitidir. Zotan, Mustaqil-huquqiy davlat qurishining hozirgi bosqichida tarix o`qitishni yanada takomillashtirib borish, o`qitish jarayonida uning ob`yektiv ravishda amal qiluvchi qonuniyatlarini aniq va mukammal bilib olish, bu qonuniyatlardan komil insonni tayyorlab yetishtirish maqsadida to`g`ri foydalanish zarur. Xususan, pedagogik texnologiyalarni ta`lim sohasida unumli foydalanishi ta`lim samaradorligini oshirmoqda. O`zbek metodist olimlari tomonidan yaratilgan adabiyotlardan N.Azizxo`jayeva, A.Xoliqov, Sh.Abdullayeva, A.Sodiqova, U.Tolipov, H.Omonov, N.Xo`jayev, S.Madyarova, E. Eshchonov, K.Hashimov, S.Nishonova, S.Ziyamuxamedova, B.Ziyamuxamedovlarning o`quv qo`llanmalarida tarix ta`limini o`qitish usullari va uslublari, dars mashg`ulotini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tahlil qilinadi, o`quvchilarning bilimni oshirish mezonlari va o`zlashtirish ko`rsatgichlariga doir tadqiqotlarning mavzuni yoritishdagi amaliy ahamiyati kattadir¹.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: 6-sinf tarix darsida “Kushon podsholigi” mavzusini o`qitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish vositasida o`quvchilarda dunyoqarashida yurtimizdagi qadim, sivilizatsiyalarning jahon tamadduniga qo`shgan hissasini, ayniqsa, moddiy, madaniy yodgorliklarni o`rganib tariximizning shonli sahifalarini o`rganishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹ Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg`armasi. 2006.; Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya.2011 yil.- B.420.; Omonov H.T., Xo`jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya.2009 yil.- B.240.; K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2005 yil.-B.304.; Abdullayeva Sh., Sodiqova A. “Yangi pedagogik texnologiyalar” mar`ruza matni T.: 2009-yil; Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari. O`quv-uslubiy qo`llanma. T.: 2002., Tolipov U.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – T.:2008.,; Зиямухамедова С, Зиямухамедов Б. Новая педагогическая технология. - Т.: Абу Али ибн Сино. 2002.

Bitiruv malakaviy ishining obykti: Umumiy o'rta ta'lim 6-sinf tarix darslarini o'qitishda o'quvchilar ongiga tarix haqidagi bilimlarni singdirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari ilmiy jihatdan yoritishni mazkur bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi", ilg'or pedagog olimlarining shaxs va jamiyat fanini o'qitish haqidagi yondashuvlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, asarlarida ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, hamda mavzuga oid yetakchi tarixchi va pedagoglarning ilmiy qarashlari tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilish kirish, 2 bob va 5 paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

I-BOB. KUSHON PODSHOLIGINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAMDA MADANIY TARAQQIYOTI VA TANAZZULI.

1.1. KUSHON PODSHOLIGINING TASHKIL TOPISHI, RIVOJLANISHI VA INQIROZGA YUZ TUTISHI

Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoning katta qismini bosib olganidan so'ng, bu hududda yashagan ba'zi qabilalar shimoli-sharq tomonga qarab siljiy boshlashdi. Ana shunday qabilalardan biri yuechjilar (xitoy manbalarida shunday deb atalgan) miloddan avvalgi IV asr oxirlarida Sharqiy Turkistondan to Mo'g'iliston chegaralarigacha bo'lgan hududlarga borib o'rtnashganlar. Xitoyning shimolida esa xunn qabilalari yashagan va Yuechjilar xunnlariga janub tomondan qo'shni bo'lib qolishgan. Keyinchalik Yuechjilar Sharqiy Turkistonda joylashib olib, xunnlarni o'z tasirlariga olishga harakat qilishadi. Ularning bu harakati, ayniqsa miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Sababi xuddi shu davrda O'rta Osiyoning janubi-sharqiy viloyatlarda Yunon-Baqtriya davlati tarkib topib, yuechjilarni bezovta qilmoqda e'di.

Yunon-Baqtriyaga qarshi O'rta Osiyo qabilalarining birlashgan mustaqil qo'shinini tuzish zaruriyati kelib chiqqan edi. Yunon-Baqtriya podshosi Evtidem massaget qabilalarining bu harakatlarini barbod etish maqsadida xunnlardan mohirona foydalanadi. Evtidem miloddan avvalgi 206 yilda salavkiylar hukmdori Antiox III bilan shimol ko'chmanchilariga qarshi harbiy ittifoq tuzadi. Bundan xabardor bo'lgan xunn shahzodasi Mode yuechjilar qo'lidan garovlikdan qochadi, o'z otasini hokimiyatdan ag'darib tashlab, yuechjilar ustiga lashkar tortib boradi¹. Miloddan avvalgi 176 yilda xunnlar yuechjilar ustiga ikkinchi marta hujum uyushtiradilar. Oqibatda xunnlar 165 yilda yuechjilarni g'arbga ulotqirib tashlaydilar. Rivoyatlarga qaraganda xunn hukmdorlari mag'lub bo'lgan yuechjilar podshosining bosh suyagidan kosa yasab,

¹ Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq,2009.-B.57-58.

g'alaba sharafiga unda sharob ichib yurgan ekanlar. Yuechji qabilalari qadimgi Farg'ona yerlariga chekinadilar va o'sha yerda istiqomat qila boshlaydilar. Xitoy manbalarida yozilishicha qadimgi Farg'onaning shimoliy tumanlarida yuechjilar qishloq va shaharlar barpo qiladilar. Bu davrda yagona bir podsho bo'lmagan, balki qabila va urug' yabg'ulari qabila oqsoqollari qo'l ostida birlashganlar. Kushon podsholigi - o'zbek davlatchiligi tizimidagi qadimgi davlat (mil. 1—3-a.lar). Mil. I asrning 1-yarmida yuechjilar tasarrufidagi Kushon mulkinging yuksalishi natijasida vujudga kelgan. Massagetlar (Xitoy yilnomalarida —yuechji) mil.av. 140 yili Sirdaryo ortidan Baqtriyaga kelib, saklarni yenggan va Yunon-Baqtriya podsholigi o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashagan. Bulardan Kushon (Xitoy yilnomalarida guyshuan) qabilasi jabg'usi Kujula Kadfiz (Kadfiz I) milodiy I asrda qolgan 4 qabilani bo'ysundirib, o'zini hukmdor deb e'lon qilgan. «Kushon» atamasi yo sulola yoki qabilaga tegishli bo'lib, u ilk bor mil. av. 1 asr oxiri — mil. 1 asr boshida hukmronlik qilgan podshoh «Geray»- Sanab zarb qildirgan tangalarda qo'llangan.

Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shimoliy Baqtriya (Tojikiston hamda O'zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi-sharqidagi yerlar) kirgan. Dastlab jabg'u, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan Kadfiz I Kushon podsholigiga asos solgan bo'lib, uning davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston bilan Pokistonning ko'pchilik qismini bosib olgan¹. Jumladan, hozirgi Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumana hududida Kushon qishlog' va Kosonsoyda Koson shahrini yuechjilar barpo qilgan edilar. Ma'lumki, miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya davlati inqiroz sari yuzlanadi. Ana shu qulay vaziyatdan foydalangan yuechjilar miloddan avvalgi 140-130 yillarda So'g'd yerlari orqali Baqtriyaga bostirib keladilar va Shimoliy Baqtriya hududlarini e'gallab oladilar². Yuechjilar Baqtriyada 100 yil mobaynida 5 ta qabilaga bo'linib yashaganlar. Ular mil. av. 140-130 yillarda

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-T.:2000 yil. -B.823.

² Ishoqov M., Pardaev K. O'zbekiston tarixi. o'quv qo'llanma. -T.:2009 yil.-B.32

Yunon - Baqtriyani ham o'zlariga tobe qiladilar va "Katta Yue-chje" davlat uyushmasiga asos soladilar. Bu davlat uyushmasiga beshta hokimlik: Guyshuan, Xyumi, Shaunmi, Xise va Dumilar bo'ysunar edi. Guyshuan (Kushon) qabilasi (yabg'usi Kudzula Kadfiz edi) to'rtta qabila yabg'ularini o'ziga tobe etib barcha qabilalar ustidan hukmronlik qilardi¹. U o'z davlatini Kushon davlati sifatida e'lon qildi va hozirgi Surxondariyo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepani bu mamlakatning poytaxtiga aylantirdi.

Kudzula Kadfiz o'z davlat chegaralarini kengaytirish va uning qudratini mustahkamlash maqsadida Amudaryoning chap sohili tumanlarini egallashga bel bog'ladi. U tez orada Parfiya, Afg'onistan va Kashmirni e'galladi. Kudzula Kadfiz 80 yoshida vafot etadi. Uning davrida Kushon davlatining o'z pullari bo'lmagan. Kudzula Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb e'tgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan ham bu davrdagi tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlarni uchratamiz. Keyinroq esa «Hukmdor Kadfiz» degan yozuvda tangalar zarb etilgan. Kushon podsholigi tetradrahmasining o'ng tomonida sochlari hafsala bilan taralgan, peshonasiga tasma bog'lagan, yuzlarida g'ayrat-shijoat barq urib turgan erkak kishining beligacha tushgan surati berilgan. Tanganing reversi kishi diqqatini o'ziga tortadi: o'rtada ot mingan shoh, uning orqasida gulchambar tutgan Nika (zafar) ma'budasi parvoz qilyapti. Shu yerning o'zida "Kushon hukmdori Geray Sanabniki" degan to'rt so'zdan iborat yunon yozuvi bor. Bu sirli tangalarning o'rgana boshlanganiga ham yuz yildan oshdi. Keyingi yillarda tangashunoslik ilmi qo'lga kiritgan yangi ma'lumotlar hamda Xolchayondan topilgan haykallar Kushon hokimi hukmronlik qilgan davrga oid kashfiyotlar qilishga imkoniyatlar berdi.

Kushon mis chaqalari hayratomuz va sirlidir. Ularda hukmdorning ismi yo'q, faqat mansabi va laqabini anglatuvchi "shohlar shohi buyuk haloskor" degan yunon

¹ Ishoqov M., Pardaev K. O'zbekiston tarixi. o'quv qo'llanma. –T.:2009 yil.-B.32

yozuvi mavjud¹. Ilmda “noma’lum shoh” yoki “Soter Megas”ning tangalari deb nom olgan bu chaqalar O’zbekiston va Tojikiston janubida olib borilgan arxeologik qazishmalarda ko’p uchraydi. Bu tangalar qaysi Kushon shohi tomonidan zarb etilgani haqida bahs munozaralar haligacha davom etmoqda. M.E.Masson fikricha, ular Kudzula Kadfiz tomonidan zarb etilgan².

Kudzula Kadfiz vafotidan so’ng uning o’gli Yangaochjen, tangalardagi yozuvlarga ko’ra Vima Kadfiz taxtga o’tiradi. U ko’proq Kadfiz II nomi bilan mashhur. Kushoniyalar hokimiyatini kengayib borishda Vima Kadfiz bo’sh kelmagan³. Bu davrda Kushonlar davlati Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlarini bosib oladi. Vima Kadfiz o’z nomidan tangalar zarb etadi. Unga atab tosh haykali o’rnatadilar. Bu haykal Hindistonning Matxura shahrida qad ko’taradi. Vima Kadfiz 30 yil podsholik qiladi. Mamlakatda pul islohotini o’tkazadi. Kadfiz II zamonida pul islohoti o’tkazilib, yangi tanga tizimi asosiy stateri 8,03 gr keladigan turli sifatdagi tillalar zarb etishga asoslangan bo’lib, ikki xil tanga joriy etilgan: biri 16,07 gr, ikkinchisi esa 2,01 gr. SHuning bilan bir qatorda diametri 23-25 mm, vazni 16-17 gr. keladigan mis tangalar ham muomalaga chiqarilgan. Tangalar aversidagi suratda yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha diniy ibodatni ado etmoqda⁴. Vima Kadfizdan so’ng mamlakatni idora etish Kanishka zimmasiga tushgan. U podsholik qilgan davrda Hindistonning janubiy tumanlari, O’rta Osiyoning So’g’diyona, Xorazm va Choch viloyatlarini zabt etadi. Kanishka davrida «shohlarning shohi-ulug’ xaloskor» yozuvi bilan tanga pullar zarb etiladi. Kanishka tangalari Ashgabatdan Xorazmgacha, bo’lgan Toshkent

¹ Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O’quv qo’llanma T.: 2012 y.B.78.


² Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии.-Т.:1990. – С. 16.

³ Azamat Ziyo. O’zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.-B.65.

⁴ Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O’quv qo’llanma T.: 2012 y.B.78.

vohasigacha bo'lgan katta hududlarda ko'plab topilgan. Kushon davlati bu davrda eng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrini o'z boshidan kechiradi¹.

Kanishka budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qiladi, buddizmni qabul qilib, uning saltanat miqyosidaga tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko'chiradi. Milodning I asr 70—80-yillarida Sharqiy Turkiston yerlari masalasida Xitoy-Kushon mojarolari boshlanadi. Shunga qadar Kushonlar xitoyliklarning Sharqiy Turkiston yerlarini egallash uchun qilgan harbiy harakatlariga xayrihoh bo'lganlar. Hatto ular 84- yilda xitoylarga qarshi kurashish uchun Qashg'arga yuborilgan Qang'uy qo'shinini tezda chaqirib oladi. Qashg'ar hokimligi esa xitoyliklarga taslim bo'ladi. Shundan so'ng kushonlar Xitoyga Turfonni bosib olishga yordam ko'rsatadi. Oradan 2-3 yil o'tgach, ikki o'rtadagi munosabat buziladi. Buning sababi Kushon elchisi Katga sovg'alar bilan Xitoy hukmdorining qizini kushonlar podshosiga unashtirish maqsadida Xitoyga borgan edi. Xitoy hukmdori uni qamoqqa oladi. Natijada ikki o'rtaga sovuqchilik tushadi. O'zini haqoratlangan deb hisoblagan Kushon hukmdori 70 ming kishilik qo'shin bilan Xitoyga qarshi yurish qiladi. O'zaro kurashda u yengilib, Sharqiy Turkistondan qochishga majbur bo'ladi².



¹ Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq.2009.-B. 58.

² Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq.2009.-B. 59.

Budda haykali (Bodxisotva). Fayoztepa topilmasi Buddaning tosh barelefi (Eski Termiz topilmasi)

Milodiy 102 yilda Xitoyning nomdor va yengilmas lashkarboshisi Ban Chao vafot etadi. Bundan foydalangan Sharqiy Turkiston viloyatlari xalqlari birin-ketin Xitoyga qarshi qo'zg'olonlar ko'taradilar. Bu qulay vaziyat tufayli kushonlar 107-yilda Sharqiy Turkistonga yana lashkar tortadilar. Kushonlar Sharqiy Turkistonda o'z hukmronliklarini o'rnatishga bo'lsalar-da, Hindiston yilnomalarida Kanishkaning Tarim havzasini bosib olganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Xullas, Kanishka podsholik qilgan 23 yillik davrda Kushonlar davlati hududlari juda ham kengaygan¹. Natijada Kushon davlati katta saltanatga aylanib, Xitoydagi Xan sulolasi hamda Rim imperiyasi bilan raqobatlashish darajasiga ko'tarildi. Kushonda davlatida viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilgan. Ular oliy hukmdorga so'zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turganlar². Soson podshosi Shopur I (241—242 yillar) qurdirgan «Zoroastr Ka'abasi»da kushonlar saltanatining hududi haqida: “Kushonlar mamlakati Peshovar, Qashg'ar, Sug'd va Chochgacha cho'zilgan»,— deyiladi. O'rta Osiyoda kushonlar asos solgan 3 ta shahar bo'lgan: 1. Koson – Farg'ona vodiysida; 2. Kattaqo'rg'on - Zarafshon vohasida va 3. Kesh -Qashqadaryo viloyatidadir. Kanishka vafotidan keyin kushonlar taxtiga uning o'g'li Vasishka o'tirdi. U 4 yilgina podsholik qildi, xolos. Vasishkadan so'ng hokimiyat Xuvishka qo'liga o'tadi. U 32 yil hukmronlik qiladi. Undan so'ng Vasudeva podsholik qildi. Vasudeva 34 yil mamlakatni idora qildi. Bu davrga kelib Kushon podsholigi ikki qismga bo'linadi. Mamlakatning bir qismiga Vasudeva, ikkinchi qismiga Kanishka III hukmronlik qiladi. Buni ularning har ikkalasi

¹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq,2001.-B.66.

² Ishoqov M., Pardaev K. O'zbekiston tarixi. o'quv qo'llanma. –T.:2009 yil.-B.32

nomidan zarb etilgan tanga, pullar isbotlaydi¹. Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj topgan. 99 yilda Kushon davlatining elchisi Rimga borgan². Kushon va Rim saltanatlari o'rtasida yaqin elchilik aloqalari bo'lgan. Ehtimol shu boisdan bo'lsa kerak, Rim podsholari II asr boshlarida Troyan kolonnalariga Rimga kelgan elchilar, savdogarlar, hunarmandlarning tasvirlarini tushirganlar. Ana shu haykal-tasvirlarda O'rta Osiyo vakillarining tasvirlari ham uchraydi. Baqtriya hududida rim tangalari va san'at asarlarining namunalari ko'plab topilgan. Kushonlar saltanati Kanishkaning vorisi Xuvishkadan keyin asta-sekinlik bilan inqiroz sari yo'z tuta boshladi³. Bu jarayon Erondagi Sosoniylar davlatining tarix sahnasiga chiquviga asosiy omil bo'ldi. Xususan, sosoniy hukmdorlardan Shopur I ning (milodiy 242-243 yillar) va Shopur II ning (mil. 309-379 yillar) Kushonlarga bergan zarbalari hal qiluvchi o'rin tutdi⁴. 226 yilga kelib kushonlar saltanatidan g'arbda Parfiya davlatining o'rnida sosoniylar davlati siyosat maydoniga chiqdi. Bu davlat Parfiyaga tegishli hududlarda tashkil topdi. Biroq podsho Ardashir 1 davrida mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatishga intildi va Kushon davlatiga xavf sola boshladi. Bunday vaziyat kuhonlarni befarq qoldirmadi. Kushon podshosi Vasudeva sosoniylar tomonidan bo'ladigan xavfga qarshi ittifoq qidirib, 230 yilda Xitoyga o'z elchisini yubordi. Kushonlar bilan sosoniylar o'rtasida jang bo'lishi tabiiy edi. 242-243 yillarda bo'lib o'tgan ikki-o'rtadagi jangda sosoniy Shopur I ning qo'shini kushonlarni mag'lubiyatga uchratdi. Shundan so'ng sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Xuroson hududlarida «Kushonshoh» unvoniga ega bo'ldilar. 252 yilda esa ular yana «Kushon shoxlarining ulu'g shoxi» degan unvonga e'ga bo'ldilar, Bu yillarga kelib kushonlar Hindistondagi yerlarining ham katta qismidan judo bo'ldilar. Buni bir budda matnida (III asr o'rtalariga oid) «dunyo uch qismga (Xitoy, Rim va Kushon) bo'lingan, ammo «osmon o'g'lonlari» (saltanatlari) to'rtta: Xitoy, Rim, Kushon va Hind» deb bergan xabaridan

¹ Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq,2009.-B. 59.

² Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq,2001.-B.72.

³ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq,2001.-B.66.

⁴ Ishoqov M., Pardaev K. O'zbekiston tarixi. o'quv qo'llanma. -T.:2009 yil.-B.33.

ham bilish mumkin. Hind manbalarida ko`rsatilishicha, III asr o`rtalariga kelib Hindiston kushonlardan mustaqil davlat bo`lib ajralib chiqqan. Xuddi shu yillarda Xorazm ham kushonlardan ajralib chiqadi. Ana shu tariqa III asr o`rtalaridan e`tiboran kushonlar saltanati chuqur iqtisodiy va siyosiy inqiroz sari yuzlanadi. Ammo shundan keyin ham Kushon davlati O`rta Sharqning yirik davlatlaridan biri sifatida yana 100 yildan ortiq vaqt tarix sahnasida turdi. Soson podsholarining kuchayishi kushonlarning Rim saltanati bilan aloqasini mustahkamlanishiga sabab bo`ldi. Kushon elchilari 274 yilda Rim saltanati hukmdori Avrelinning Palmir ustidan g`alabasiga bag`ishlangan tantanalarda qatnashganligi manbalarda ko`rsatiladi. Natijada sosoniylar Rim—Kushon do`stligidan xavfsirab, kushonlar bilan aloqani yaxshilash yo`lidan boradilar. Bu maqsanding ijobiy natijalanishiga e`rishish yo`lida sosoniylar shohi Xormuzd II (301—309) kushonlar malikasiga uylanadi. Biroq IV asrning o`rtalariga kelib kushonlar bilan sosoniylar o`rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Bu davrda Shopur II (309—379) kushonlarga zarba berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi. Kushonlar bu zarbaga ham bardosh berdilar.

Kushonlar sulolasining so`nggi vakillari kidariylardir. Ularni taxtga o`tkazish tantanalari IV asrning oxirida Balxda bo`ldi. Kidariylar tarix sahnasida uzoq yashamadilar. Maydonga yangi kuchlar chiqdi. Bu kuchlar o`z vaqtida Kushonlar saltanatining tarix sahnasidan o`chishiga olib keldi. Kushon podsholigi va kushonlar davri O`zbekiston, Tojikiston, Afg`aniston Pokiston, va Hindiston tarixida muhim o`rin tutadi¹. Shunday qilib Kushonlar saltanati tarix maydonida o`z o`rnini boshqa, o`zidan kuchliroq siyosiy yushmalarga bo`shatib berdi. Kushonlar o`zlarining tahminan 400 yillik hukmronlik davrida insoniyat jamiyati taraqqiyotida o`chmas iz qoldirdilar. Bu davrda yaratilgan noyob san`at asarlari, madaniyat yodgorliklari uning o`tmishidagi qudratidan dalolatdir.

¹ Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq,2009.-B. 61.

1.2. KUSHON PODSHOLIGINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

Kushon podsholigi - o'zbek davlatchiligi tizimidagi qadimgi davlat bo'lib, milodiy 1-asrning 1-yarmida yuyechjilar tasarrufidagi Kushon mulkining yuksalishi natijasida vujudga kelgan. Massagetlar (Xitoy yilnomalarida —yuyechji) miloddan avvalgi 140 yili Sirdaryo ortidan Baqtriya kelib, saklarni yenggan va Yunon-Baqtriya podsholigi o'rnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashagan. "Kushon" atamasi yo sulola yoki qabilaga tegishli bo'lib, u ilk bor miloddan avvalgi I-asr oxiri milodiy I-asr boshida hukmronlik qilgan podshoh "Geray" zarb qildirgan tangalarda qo'llangan. Kushonlarning dastlabki mulklari hududiga Shimoliy Baqtriya (Tojikiston hamda O'zbekistonning janubi, Turkmanistonning janubi-sharqidagi yerlar) kirgan. Dastlab jabg'u, keyinchalik podsho unvoni bilan davlatni idora qilgan Kadfiz I Kushon podsholigiga asos solgan bo'lib, uning davrida kushonlar hozirgi Afg'oniston bilan Pokistonning ko'pchilik qismini bosib olgan. Kadfiz I ning vorisi Vima Kadfiz hukmronligi davrida Hindistonning aksariyat qismi Kushon podsholigiga qo'shib olingan. Kushon podsholigi ning eng ravvaq topgan davri Kanishka hukmronlik qilgan vaqtga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyoda kushon mulklarining shimoliy chegarasi Hisor tizmasi bo'ylab, u yerdardagi tog' daralarida g'oyatda mustahkam chegara devorlari qurilgan. Kushon

podsholigi davrida urushlarning tez-tez bo'lib turishi natijasida mamlakatda harbiy asir-qullar miqdori oshib borgan. Xitoy va Parfiya bilan kurash olib borayotgan Kushon podsholigi Yaqin Sharqda hukmron bo'lish uchun Parfiya bilan urushayotgan Rimning ittifoqchisi edi. Biroq savdo manfaatlari bu davlatlarni o'zaro yaqinlashtirgan¹. "Buyuk ipak yo'li" bo'ylab xalqaro savdoning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratilgan. Sharqda- Sharqiy Turkistonning qo'shib olingan shaharlar-vohalari orqali Xitoy bilan, janubda- kushonlarga tobe Shimoliy Hindiston bilan, g'arbda-dengiz yo'li bilan, Misr orqali yoki quruqlikdagi yo'l bilan Eron orqali O'rta dengiz havzasidagi Rim imperiyasi shaharlari bilan, shimolda Xorazm va Uralbo'yi orqali Sharqiy Yevropa bilan savdo qilingan. Janubiy O'zbekistondan kushonlar davriga oid yuzdan oshiq shahar va qishloq xarobalari aniqlangan. Bu davrda shahar va qishloq o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan va har bir shahar atrofida ko'plab mayda qishloqlar joylashgan. Kushon podsholigi siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lish bilan birga bosh kohin ham edi. Davlat satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning satrapparn ayrim erkinliklarga ega bo'lgan. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo'lsada, unda qishloq jamoasi muhim o'rin tutgan. Kushon podsholari mamlakatda keng ko'lamda dinlararo murosasozlik siyosatini yurgizgan: aholi, asosan, buddizmnmg mahayana mazhabiga e'tiqod qilgan, shuningdek, mamlakatda zardushtiylik, otashparastlik, hinduizm kabi ko'plab boshqa dinlar ham bo'lgan. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo keng taraqqiy etgan. Pul tizimida ko'proq oltin va mis tangalar qo'llanilgan. Dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, qishloq xo'jaligi ekinlarining ko'pchilik turi ekilgan².

Kushoniylar davri iqtisodiy munosabatlari haqida so'z ketganda, eng avvalo shuni ta'kidlash joizki, mintaqa aksar qismining siyosiy bir butunligi yagona iqtisodiy makonni yuzaga keltirdi. Kadfiz II davrida amalgam oshirilgan pul islohoti esa iqtisodiy

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-T.:2000 yil. -B.823.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-T.:2000 yil. -B.823.

munosabatlarni yanada jadallashtirish uchun uchun katta omil bo'lib xizmat qildi¹. Kushon podsholigi Rim, Parfiya va Xitoy bilan har jihatdan bellasha olgan qadimgi Sharqdagi eng qudratli saltanatlardan biri bo'lib, ikki asr mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Yuqori saviyada taraqqiy etib boorish hunarmandchilikka ham xos bo'lgan. So'g'diyona, Xorazm, Farg'ona, Baqtriya, Shimoliy Hindiston shahar va qishloqlarida kulolchilik, metalsozlik, to'qimachilik, shishasozlik, duradgorlik bilan shug'ullanadigan ustalarni ko'plab topish mumkin bo'lgan. Kulolchilik sohasida erishilgan tajriba, ustalarning mahorati yuksak darajada bo'lgan. Masalan, ushbu sohaga aloqador va bizning davrimizda arxeologlar tomonidan topilgan, ya'ni 2 ming yillik tarixga ega qadah idishlar shunchalar nafiski, jaranglashda billur qadahlardan hech ham qolishmaydi².

Bir saltanat tarkibida bir necha mamlakatlar, xalq va elatlarning birlashuvi turli madaniyatlarni o'zaro yaqinlashtirdi, davr madaniyatlari (mahalliy Qadimgi Baqtriya, yunon, sak va hind madaniyatlarini mujassamlashtirdi. Arxeologik topilma va ko'hna yozma manbalar asosida kushonlar madaniyatiga doir quyidagi muhim ilmiy ma'lumotlar aniqlandi: burjli mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan shahar qurilishi taraqqiy etgan, bir necha o'nlab shunday shaharlar, ko'plab yirik sug'orish inshootlari qurilgan. Shaharlar ichida arklar mavjud bo'lib, ularning atrofini turli binolar majmuasi qurshab turgan. Kushon podsholigining shimoliy-g'arbiy hududlaridagi binolar qurilishida ko'proq xom g'isht va paxsadan, janubi-sharqida esa toshdan foydalanilgan. Shaharlar, odatda, daryo bo'ylarida, strategik jihatdan qulay joylarda bunyod etilgan. Ular podsho saroyi, boy-zodagonlar va hunarmandlar mahallasi, ko'cha va maydonlar, hovo'zlar, turli dinlarga mansub inshootlar, ekinzor va bog'lardan iborat bo'lgan. Uylar ko'p xonali, hashamatli bo'lib, ba'zilar ikki qanotli qilib qurilgan. Hovli sahni, xonalar poli, zinalar va boshqalarda turli hajmdagi pishiq g'ishtlar qo'llanilgan. Ayvon yog'och

¹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.-B.67-68.

² Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.-B.68-69.

ustunlari ostiga ohaktoshdan yo'nilgan chiroyli tagkursilar o'rnatilgan. Tomdan to'shadigan suvlar uchun maxsus sopol tarnovlar ishlatilgan.

Bino va xonalar haykaltaroshlik, tasviriy san'at asarlari bilan bezatilgan. Haykal va rasmlarda, asosan, podsholar, podsho xonadoni a'zolari, boy-zodagonlar, sozanda va masharabozlar tasvirlangan (Xolchayon). Budda diniga mansub inshootlarda esa Budda va uning safdoshlari, izdoshlari, kohinlar va xizmatkorlar ifodalangan (Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa). Haykallar, asosan, ohaktosh, loy va ganchdan tayyorlangan, ular orasida sirtiga tilla suvi yuritilganlari ham bor. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Kulolchilik taraqqiy etgan, topilgan sopol idishlar xilma-xilligi va o'zining nozik, jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Amaliy san'at keng rivojlangan, uning eng yaxshi namunalari Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanmoqda¹. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish taraqqiy etgan. Kushonlar davrida markazlashgan davlatning qaror topishi xo'jalikning ravnaqiga sabab bo'lgan. Bu davrda ham ziroatchilikning g'allachilik, paxtachilik, bog'dorchilik va polizchilik sohalari jadal rivojlanadi. Tog' va tog' oldi hududlarida lalmikor dehqonchilik xo'jaligi ravnaq topadi. Yerni qayta ishlash, xususan, almashib ekish borasida boy tajriba to'lanadi, yangi-yangi sug'orish tizimlari bunyod qilinadi. Chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilgan. Aynan ana shu davrda hunarmandchilik xo'jaligi yuksak darajada rivoj topib, ushbu sohaning kulolchilik, metallsozlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik kabi turlari ancha yuksalgan. Hatto Baqtriya shishasozlari 420 yidda Xitoy poytaxtida turfa rangdagi shishalar tayyorlab xitoyliklarni lol qoldirgan. Kushonlar davrida xo'jalikning ravnaqi savdo-sotiqning rivojiga ham turtki bo'ladi.

Xususan, shu davrda Baqtriya savdogarlari Parfiya, Rim, Xitoy va Hindiston mamlakatlariga borib savdo qilganlar. Rimning Pompey shahri xarobalaridan Kushon tangalarining yoki Qoratepa kulol idishlari, Termizdan topilgan may hamda ayshu ishrat

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.20-21.

xudolari Vakxoniya, tag'in Vakx-Bolus sharafiga uyushtirilgan bayram sahnasi tasviri solingan loy idishlar, shuningdek, Hayitobod tepadan imperator Neron tangalarining topilishi yuqoridagi fikrning isbotidir. Bu davrda Surxon vohasi savdo yo'llari o'zaro tutashgan hudud bo'lib, albatta, bu holat o'lkaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir o'tkazgan. Termiz shahri hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlar qo'shni davlatlarga, jumladan, Parfiya, So'g'diyona, Chin-Mochin, Ozar va musulmon dunyosi mamlakatlariga chiqarilgan hamda yuqori baholangan.

Kushonlar davrida madaniy hayot ham yuksaklikka bo'y cho'zgan. Podsho Kanishka zamonidan boshlab boxtar tili davlat tili deb e'lon qilinadi. Kushonlar davrida me'morchilik ancha yuksalib, turar joy binolari, ibodatxonalar va saroylar qurish ancha avj oladi. Imoratlarni bezash, naqsh solish borasida ham o'ziga xos tajriba to'planadi. Bu davrda mahalliy madaniyat bilan hind madaniyatining o'zaro aralashish jarayoni sodir bo'ladi. Ayniqsa, Kanishka zamonida Budda dinining davlat dini deb e'lon qilinishi natijasida buddaviylik e'tiqodi bilan bog'liq ravishda haykaltaroshlik san'ati ancha yuksaladi. Buddaviylikning dini milodgacha birinchi ming yillikning o'rtalarida Hindistonda shakllangan¹. Buddaviylar 1956 yilda o'z dinlari shakllanganligining 2500 yilligini nishonladilar. Bu dinning asoschisi Shak'ya Muni ya'ni, hind shahzodasi Siddxartma Gautama-Budda deb hisoblaydilar. Buddaviylik dastlab quldorlar mafkurasi sifatida shakllangan. Buddaviylikda yomonlikka qarshi bosh ko'tarmaslik g'oyasi katta o'rin egallaydi.

Buddaviylikda «to'rt oliy haqiqat» g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Ular qo'yidagilar: 1. Azob-uqubat haqidagi ta'limot; 2. Azob-uqubatning sabablari haqidagi ta'limot; 3. Azob-uqubattan halos bo'lish yo'llari haqidagi ta'limot. Bu ta'limot xalos bo'lish, najotning «sakkizlik» yo'lida o'z aksini topgan. Bular taqvodorlik e'tiqodi, taqvodorlik qat'iyati, taqvodorlik so'zi, taqvodorlik ishi, taqvodorlik turmush tarzi, taqvodorlikki intilish, taqvodorlikni orzu qilish, taqvodorlik fikri-hayoli bilan yashash.

¹ Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. –T.: Iqtisod-moliya. 2006. B.69.

Buddaviylikning bu yo'llari azob-uqubatlardan xalos bo'lib, sansaradn (sanskritcha-olamgo'zaronlik) nirvanaga (sanskritcha-so'nish) aylanish o'tishdan iborat.

Buddaviylikda olam uch bosqichdan iborat bo'lib, uning birinchi bosqichi, eng yuqorisi nirvanadir. Unda mutloq osoyishtalik hukm suradigan olamdir. Inson bu yerda barcha turmush tashvishlaridan xalos bo'ladi. Uning hayotiy istaklari ham, ehtirolari ham bo'lmaydi. Hamda nirvana bu qayta tug'ilish, boshqa qiyofaga kirish, mutlaq osoyishtalikdan iborat. Ikkinchi olam- bu bodisatva, ya'ni ruhiy mavjudotlar bilan to'la jannatdir. Bu olamda ruh gunohidan xalos bo'lgan lekin oliy olamga ko'tarilmagan avliyolar yashaydi. Uchinchi olam esa eng quyi olab bo'lib, unda odamlar va hayvonlar yashashadi. Ular najot yo'lida olamga intiladilar.

Buddaviylikda beshta axloqiy talab (panchashina)ga rioya qilish ilgari surilgan. Ular: bironta ham tirik mavjudotni o'ldirmaslik, birovning mulkini olmaslik, birovning xotiniga ko'z olaytirmaslik, yolg'on gapirmaslik, spirtli ichimlik ichmaslikdan iborat. Kushonlar davrida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Uning xinayama, maxayama, keyinchalik lamaizm yo'nalishlari vujudga keldi. Kushonlar davrida Termiz shahri buddaviylikning tayanchiga aylanganidan shu dalolat beradiki, bu davrda Termiz shahrining ibodatxonalari, ularning yonida esa monastirlar ham mavjud bo'lgan. Kushon podshosi Kanishkaning muhim xizmatlaridan yana biri shu bo'ldiki, u mamlakatning birlashtirish uchun kurash olib borib, mamlakat aholisini maqsad, mafkura bayrog'i ostida birlashtirish yo'lida muvaffaqiyatli harakat qildi.

Kanishka Kadfiz 78 yilda Panjob viloyatida buddaviylarning umumjahon yig'ilishini chaqirtiradi va Buddaviylikning Maxayama yo'nalishini targ'ib qiladi, unga binoan Maxayama «hamma uchun birdek ulug' yo'l» deb biladi. Kushonshohlar e'tiqod erkinligini joriy etgan bo'lsalar-da, buddaviylikni kengroq yoyish va uni rivojlantirish uchun turli shaharlarda takyagoh, xonakoh, ibodatxonalar qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari («Tripitaka»)ni ko'paytirish, ularni o'rganish, tarjima qilish va izohlash, yangi tafsirlar yozish kabi diniy-falsafiy tafakkur rivoji uchun sharoit yaratish imkoniyatlarini qurdilar va moddiy mablag' bilan ta'minlab, davlat siyosati himoyasini

yaratib berishdi. Bunday siyosat natijasida Tarmita o'z davrining yirik iqtisodiy, madaniy va buddaviylik dini markaziga aylandi¹. Kushonlar davrida budda dinining ravnaqiga baqtriyalik rohiblar ham juda katta hissa qo'shadilar. Xitoy, Tibet manbalarida buddaviylik dini targ'ibotchilari qatorida tarmitalik Dxarmamitara va toxaristonlik Gxoshakalarning nomlari ham qayd qilingan. Buddaviylik dinining yirik mazhablari sanalgan Xinoyana va Maxayana yo'nalishlari ham aynan shu zaminda ravnaq topadi. Viloyat hududida joylashgan kushonlar davriga oid arxeologik yodgorliklar keng miqyosda o'rganilgan va ushbu tadqiqotlar jarayonida Kushonlar saltanatiga doir boy tarixiy ma'lumotlar aniqlandi. Bu ma'lumotlarga asoslanib vohada Kushon saltanati davrida xo'jalik va madaniyat yuksak taraqqiy etganligini kuzatish mumkin.

Kanishka I davrida kushon-baqtriya tili davlat tili sifatida qabul qilingan. Aholi, asosan, buddizm dinining mahayana mazhabiga e'tiqod qilgan, ko'plab budda ibodatxonalari qurilgan, shuningdek, otashparastlik, hinduizm ham keng tarqalgan. Kanishka buddizm tarixida birinchi bo'lib vaqt-vaqti bilan diniy yig'in chaqirib turishni joriy etgan. Dastlabki yig'inda buddizmning mazkur yangi mazhabi mahayana rasmiylashtirilgan. Bu esa buddizmning Osiyo mamlakatlarida keng tarqalishiga, uning jahon dinlaridan biriga aylanishiga sabab bo'lgan. Topilgan tangalarning orqa tomonida turli ma'budlar-Mitra (Quyosh ma'budi), Otash (olov ma'budi), Farr (omad va ma'murchilik ma'budi) va boshqa tasvirlanganligi buni isbotlaydi. Saltanatda savdoning rivojlanishi yozuvning keng ko'lamda tarqalishiga imkon yaratgan. Oromiy yozuvi asosida sug'd va xorazmiy yozuvlari vujudga kelib, taraqqiy etdi².

Hind alifbosiga asoslangan kharoshthi yozuvi namunasi ilk bor Termizdan, teri va taxtaga bitilgan xorazmiy yozuvi namunasi esa Tuproqqal'adan topildi. Kushon podsholigi yerlaridan o'tgan Buyuk ipak yo'li tashqi savdoning rivojlanishiga ijobiy

¹ Ishoqov M., Pardaev K. O'zbekiston tarixi. o'quv qo'llanma. –T.:2009 yil.-B.35.

² Болдыров А.Н., Брагинский И.С. Рукописная книга в культуре народов Востока.книга вторая. –М.:Наука.1988.-с.317.

ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi¹. Kushon podsholari zarb qilgan oltin, kumush va mis tangalar Efiopiya, Skandinaviya, Italiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda topildi. Bu esa Kushon podsholigi chet mamlakatlar bilan keng miqyosda savdo va madaniy aloqalar olib borganligidan dalolat beradi. Sharqdan olib kelingan ipakka G'arb bozorlaridagi mollar almashtirilgan. Umuman savdoda ko'p tovarlar qatori dorivorlar, Rim tilla tanga va taqinchokdari, fil suyaklari va undan tayyorlangan turli buyumlar hamda "tirik tovar"-sozanda, raqqosa va hunarmand qullar ham bo'lgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti O'zbekistonning janubidagi Dalvarzintepada bo'lgan, podsho Kanishka davrida esa Peshovar shahriga ko'chirilgan. Ayni shu davrda badiiy, san'at maktablari (Gandhara, Matxura, Baqtriya) shakllandi. Kanishka adabiyot va san'at homiysi bo'lib, Kashmir viloyatida Kanishkapur shahriga asos soldi. Uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir va faylasuflar Ashvagxosha, Matricheta, Vagarjuva hamda Charaka yashab ijod qilgan. Yuqorida Vima Kadfiz davrida pul islohoti o'tkazilganligi qayd etilgan edi². Bu Kushon davlati pulining joriy etilishini ta'minladi. Bu pullar oltin, kumush va misdan ishlangan edi. Oltin tangalar odatda tashqi savdo uchun zarb etilgan. Har bir oltin tanganing og'irligi 8 gramm bo'lgan. Bu borada akademik A.Asqarov quyidagilarni keltirib o'tadi: "Xitoy manbalari va arxeologik materiallar (birinchi navbatda numizmatika materiallari) tahliliga ko'ra, Kudzula Kadfiz 80 yil yashab, eramizning birinchi yarmida podsholik qilgan. Rabatak sulolaviy ro'yxatiga ko'ra, uning o'g'li Vima Takto "noma'lum shoh" Soter Megas nomi ostida podsholik qiladi. U uzoq vaqt hukmronlik qilmagan ko'rinadi. Chunki 51 yilda hokimiyatga Kudzula Kadfizning boshqa o'g'li Vima Kadfiz (51-78 yy) kelib, Hindistonning Banorasga qadar yerlarini bosib oladi"². "Soter Megas" tangalarining o'ng tomonida qo'lida kalta va yengil nayza drotik ushlagan ideal shoh

¹ Болдыров А.Н., Брагинский И.С. Рукописная книга в культуре народов Востока. книга вторая. —М.:Наука.1988.-с.318.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-T.:2000 yil. -B.823.

² Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2007. – B. 183.

siymosi aks ettirilgan. Ba'zi tadqiqotchilar bu shoh siymosi emas, balki ma'bud Mitra deb taxmin qilishadi. Tanganing reversida uzatilgan qo'lida jang boltasi – tabar-zagnul tutgan otliq shoh tasvirlangan.

Kadfiz II zamonida pul islohoti o'tkazilib, yangi tanga tizimi asosiy stateri 8,03 gr keladigan turli sifatdagi tillalar zarb etishga asoslangan bo'lib, ikki xil tanga joriy etilgan: biri 16,07 gr, ikkinchisi esa 2,01 gr. Shuning bilan bir qatorda diametri 23-25 mm, vazni 16-17 gr. keladigan mis tangalar ham muomalaga chiqarilgan. Tangalar aversidagi suratda yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha diniy ibodatni ado etmoqda. Bu tipdagi kohin-shoh tasviri boshqa barcha Kushon podsholigining shohlari Kanishka, Vasudeva, Kanishka III tangalari reversida homiy ma'budalar tasviri bor. Kadfiz II va Vasudeva tangalarida homiy ma'buda sifatida buqa Nanda yonida turgan hind ma'budasi Shiva namoyon bo'ladi. Kanishka va Xuvishka tangalarida ma'budalar ahli jam bo'lib (Panteon- Ma'bad) Avesto diniga mansub otash, Vad, Mehr, Moh, Orlagno, Farr, sanamlar Nana va Ardoxsh, yunonlar Geliosi, hindlarning Buddasi, misrliklarning Soranisi aks etgan.

Kushon tangalarida tasvirlangan ma'budalarni o'rganish podsholikdagi turli xalqlarning turli dinlari tarixi haqida g'oyat muhim ma'lumotlarni beradi¹. Masalan, Kushon shahanshoi Vima Kadfiz tangasida hindlarning bosh ma'budasi SHiva muqaddas Navvos Nandi oldida tasvirlangan. Ma'lumki, Shiva raqs, bo'ron va serpushtlik ma'budasi hisoblangan. Ushbu tangada tasvirlangan rasm zaminida qanday mazmun yotadi? Hindistonni Kushon shohlaridan birinchi bo'lib Vima Kadfiz zabt etgan edi. U o'z g'alabasini hindlar orasida mustahkamlash va uni yanada yoyish uchun hindlar ma'budi Shivani o'ziga homiy qilib olgan. Shu bilan birga uning g'alabalariga Shiva rahnamolik qilganligini qayd qilmoqchi bo'lgan².

¹ Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии... – С. 16.

² Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma T.: 2012 y.B.78.

Kanishka tangalarining birida Vado, ikkinchisida Mixro, uchinchisida Maxfaro yoki Orlagno kabi zardushtiylar dini bilan bog'liq mahalliy ma'budalarning tasviri uchraydi. Kanishka va Xuvishka tangalarida tasvirlangan ma'budalar o'zlarida qanday mazmunni ifodalaydilar. Masalan, Mitro-Quyosh ma'budasi hisoblangan. U tangalarda tizzagacha tushgan qalin chakmonda chapga qarab turgan holda tasvirlangan. Ma'budaning o'ng qo'li oldinga ko'tarilgan, chap qo'li bilan belini ushlab turibdi. Belida uzun qilich, boshi atrofida esa yog'du tasvirlangan. Ma'budning surati oldida uning nomi bitilgan. Oy ma'budi Max bo'lsa, belida qilich, o'ng qo'lida toj ushlab turgan holda aks etgan. Ma'budning boshi orqasida yarim oy tasvirlangan. Orqada "Max" degan yozuv bitilgan. Olov, boylik va istiqbol ma'budi Farro esa tangalarda chap tomonga turgan holda aks etgan. Uning egnida tizzagacha tushgan qalin chaqmoq, oyog'ida etik, chap qo'li belida, o'ng qo'lidagi likopchada muqaddas olov yonib turibdi. Suratning orqasida "Farro" so'zi bitilgan orlagno urush ma'budasi tasvirlangan. Tangalarda u uzun kiyimda tasvirlangan. Uning boshi va yelkasi atrofida lentalar xilpirab turibdi. Ma'budaning chap qo'li belida, belida qilich, tepaga ko'tarilgan o'ng qo'lida esa nayzani ushlab turibdi. Tasvirning orqasida "orlagno" deb yozilgan¹.

Shunday qilib, kushonlar tangasida tasvirlangan xudolar ichida Buddani, zardushtiylarning Ahuramazdasini ham, hindlar xudosi Shivani, yunon xudosi Selena (oy ma'budasi), Gelios (Quyosh ma'budi) va boshqalarni ham ko'rishimiz mumkin. Kanishka davrida etnik xalqlarning ortib borishi jadallashgan. Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat tasarrufiga katta hudud kiritilgan va zarb qilingan tangalar shu katta hududda muomalada bo'lgan. Podsholikka kiritilgan turli xalq va elatlarni podsholikka siyosiy va mafkuraviy bo'ysundirishda, ushbu xalqlarning an'analari hurmat qilingan. Tangalardagi turli xalq va elatlar ma'budlarining tasvirini kuzatgan holda podsholikda diniy erkinlik bo'lgan degan xulosani ham beradi. Podsholikda Buddha dini davlatning rasmiy dini bo'lishi bilan birga boshqa dinlarga cheklashlar

¹ Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma T.: 2012 y.B.78.

qo'yilmaganidan dalolatdir¹. Vima Kadfiz II eramiz I asr ikkinchi yarmi. Aversida. o'ng qo'lini mehrob uzra cho'zib, chap qo'lini biqiniga tirab olgan, boshiga yalov-tasmali uzun kulox kiygan shoh tasviri. Tanga sathining chap tomonida uch tig'li nayza va g'adir-budir gurzi, o'ng tomonida to'rt qirrali, yon o'simtiklari bor tamg'a. Odatda besh so'zdan iborat doira shaklidagi grekcha yozuv: "Shohlar shohi Vima Kadfiz Kushon" degan ma'noni anglatadi. Reversida. Bo'ka Nanda ro'parasida turgan SHiva. Xaroshtxi usulida yozilgan hind yozuvi. Mis. D-27: V-18 gr².



Kanishka (er. II asr birinchi yarmi). Aversida. Tik turgan, chakmonli va uzun qulohli shoh tasviri. O'ng qo'li mehrob uzra cho'zilgan, chap qo'lida nayza. Baqtra tilida "Shohlar shohi Kanishka Kushon" degan yozuv. Revers – kiftlari ortidagi plashini xilpiratib chopib ketayotgan yalang'och shamol ma'budi Vado tasviri. Tanga sathining o'ng tomonidagi bo'shliqda to'rt qirrali tamg'a. Baqtriya yozuvi. Mis. D-25: V -15 gr.



Xuvishka (er. II asr o'rtalari – ikkinchi yarmi). Aversida. Filga minib, o'ng qo'lida aso, chap qo'lida gavron tutgan hukmdor tasviri. Baqtriya tilida "SHohlar shohi Xuvishka

¹ Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma T.: 2012 y.B.79.

² Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma T.: 2012 y.B.78.

Kushon” degan yozuv. Reversida. o’ng qo’lida nayza tutib, tik turgan ma’bud tasviri. Chapdagi bo’shliqda tamg’a. Mis. D-22. V-7 gr¹.

¹ Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O’quv qo’llanma T.: 2012 y.B.78.



Kanishka oltin tangasi



Kanishka davrida davlat tili Kushon-Baqtriya tili hisoblangan. Bunga qadar davlat tili yunon-(Kudzula davrida)cha, so`ngra yunon va hind (Vima Kadfiz davrida)cha bo`lgan. Kanishka davriga kelib tangalar baqtriya yozuvi bilan chiqqan. 100 yilda Kanishka budda dini ulamolarining qurultoyini chaqiradi va ularning fikr-mulohazalarini o`rganib, din sohasida dam islohot o`tkazadi. Ilgari zarb etilgan tangalar faqat xind xudosi (Shiva tasviri bilan chiqarilgan bo`lsa, endi tangalardagi tasvirlarda xudolarning soni ko`payadi. Bu hol Kanishkaning Buddha dinini davlat dini deb e`lon qilgan bo`lsada, ayni paytda odamlarga har xil dinlarga e`tiqodga ruxsat berilganligini ko`rsatadi.

Kushon davlati haqida tarix kitoblari keng ma`lumot beradi. Markaziy Osiyoda imperiyalarning eng qadimgisi, davriy jihatdan eng yashovchani (milodiy I-IV asrlar) Kushon davlati bo`lgan desak yanglishmaymiz. O`z davriga nisbatan mislsiz ulkan mintaqalarni egallagan Kushon davlati chegaralari- sharqda Xitoy, g`arbda Kaspiy dengizi, janubda Hindiston va shimolda Orol bo`ylarigacha etib borgan. Qadimgi dunyo madaniyatining uch yirik manbayi- hind, fors va turk xalqlari tutashgan markaziy zaminda tashkil topgan ulug` davlat. Yuechjeylarning eramizdan avvalgi II asr o`rtalarida Grek-Baqtriya davlatiga bostirib kirishi ushbu davlatni tamomila tugatilishiga olib keldi. Yuechjeylarning dastlabki mulklari shimoliy Baqtriya hududlarida bo`ldi¹.

¹ Shamsutdinov R., Sh.Karimov. Vatan tarixi.-T.:Sharq,2009.-B. 58.

Markaziy Osiyoda Kushon davlatining chegaralari hozirgi O'zbekiston janubidagi Hisor tog' tizmalari cho'qqilaridan o'tgan. O'sha yerdagi baland tog' daralarida (Darband) mustahkam chegara inshootlari qad ko'tardi. O'sha davrlarda davlat sarhadlarida yangidan-yangi shaharlar qad ko'tardi, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo munosabatlari o'rnatildi. Pompeyda olib borilgan qazish ishlari mobaynida kushon tangalari hamda kusxon ustasi tomonidan suyakdan yasalgan figuralar topildi. Kushon davrida me'morchilik yuksak rivojlandi¹. Ayniqsa saroylar va ibodatxonalar qurilishiga katta e'tibor qaratildi. Kusxon hukmdorlarining Xolchayondagi saroyida va eski Termiz va Dalvarzindagi budda ibodatxonalarida yuqori badiiy did bilan ishlangan devor chizgilari va haykaltaroshlik namunalari yaxshi saqlanib qolgan. Xolchayon, Dalvarzin va Ayritomda olib borilgan qazish ishlari davomida kushon ustalarining yuksak mahoratidan dalolat beruvchi bronza idishlar, muhtasham shag'amsupalar, ko'zgular hamda zargarlik mahsulotlari topilgan. Dehqonchilik imperiya iqtisodiyotining tayanchi bo'lgan. Yer hosildorligini oshirish maqsadida turli o'g'itlardan keng foydalanilgan. Tog' oldi hududlari va cho'llar chorvachilik maqsadlarida foydalanilgan. Termizda olib borilgan qazuv ishlari davomida oramiy tili asosida yozilgan xatlar topilgan. Kusxon kursiv xati o'zining o'tkir burchakli, kvadrat va aylana shaklidagi harflari bilan ajralib turar hamda o'sha davrlarda juda keng tarqalgan edi². Kanishka davrida Kushon davlatiga buddizm kirib keladi va tez orada davlat diniga aylanadi. Ammo shu bilan birga zardushtiylik va mahalliy O'rta Osiyo, Hindiston, Eron, Yunoniston va Misr xalqlari dinlari ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Kushon davlati eramizning III asri birinchi yarmining oxirida barham topdi.

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.9.

² Kostetskiy V.A., Sagdullayev A.S. Tarix. Qadimgi dunyo.-T.: "Yangi yo'l poligraf servis" 2013.-B.139.

1.3. KUSHON PODSHOLIGINING TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

Kushonlar davrida saroylar qurish, arxitektura qurilishi rivojlanib, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik san'ati eng yuqori natijalarga erishdi. Kushonlar imperiyasiga xos moddiy- ma'naviyat asoslari keng rivojlanishi tufayli rasmiy, diniy, ishlab chiqarish, turar joy, sun'iy sug'orish mudofaa, maxsus, tijoratga taalluqli qurilish binolari bilan uyg'unlashgan holda qurilgan. Kushon podsholigiga doir yozma manba va arxeologik topilmalar kushonlar madaniyatini o'rganish, ularning O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rnini ilmiy baholashda muhim ahamiyatga ega. Kushon podsholigi siyosiy tarixi va madaniyati o'tmishining hali to'la, haqqoniy yoritilmagan jihatlari ko'p bo'lib, O'zbekiston, Hindiston, Fransiya, AQSH, Italiya, Vengriya, Tojikiston, Afg'oniston, Rossiya, Yaponiya olimlari ularni aniqlash borasida chuqur, izchil ilmiy tadqiqotlarni davom ettirmoqda¹.

Ammo, Kushon podsholigi madaniyati tarixining ayrim jihatlari hanuzgacha noaniq bo'lib, tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlar ularga oydinlik kiritish uchun izchil va chuqur ilmiy tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Chunonchi, bu borada 1913 va 1960 yillarda London, 1968 yil Dushanbe, 1970 yil Kobulda xalqaro simpoziumlar o'tkazildi, YUNESKO qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi va madaniyatini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifalardan biri qilib qo'ydi. Arxeologlar Kushon madaniyatiga oid Bagram, Balx, Began, Surxkxo'tal (Afg'oniston), Kosambi (Hindiston), Sirsukx, Taksila (Pokiston), Ayritom, Bozorqala, Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Voye, Termiz, Xayrobodtepa,

¹ Пугаченкова Г.А. Халчаян. -Т.: 1966.-с.18;

Xolchayon (O'zbekiston), Kayqubodshoh, Ko'hnaqa'la, Shaxrinav, Munchoqtepa (Tojikiston)da qazish ishlari olib bordi¹.

Kushonlar davri moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishda qadimshunos va san'atshunos olimlardan V. M. Masson, B. YA. Staviskiy, L. I. Albaum, G. A. Pugachenkova, E. V. Rtveladze, B. A. Turg'unov, T. V. Belyayev hamda Sh. R. Pidayevlarning ilmiy xizmatlari beqiyos darajada kattadir. Ushbu olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida kushonlar davrida voha shahar va qishloqlari hamda aholisining mashg'uloti, yashash tarzi, madaniyati, diniy e'tiqodi va qo'shni davlatlar bilan olib borilgan savdo-sotiq, madaniy hamda diplomatik aloqalari haqido qimmatli ma'lumotlar aniqlandi. Kushon davlati Markaziy Osiyoning janubi-sharqiy va Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlarini o'z ichiga olgan antik davlat edi.

Uning shimoliy chegarasi Darbandning Kushon davridagi devori bilan chegaralanadi. XX asrning 80-yillarida bu devorni akademik E.Rtveladze kashf etgan. Biroq Gabaza viloyatining joylashgan o'rni masalasi hozirga qadar uzil-kesil hal qilinmagan. XIX-XX asr boshlaridagi topografik xaritalarda Oqrabotdan g'arbdagi joylar «Gabzan» deb belgilangan. Armaniston manbalrida Arang (Amudaryo) daryosiga yaqin yerda joylashgan Gozbon haqida ma'lumotlar bor. Arman tarixchisi Sebeosning xabar berishicha, fors yo'l boshchisi Mehrivandak «Baxl (Balx) va Ulug' daryo nariyog'idagi Kazbion degan joygacha butun Kushonlar mamlakatini qo'lga kiritgan»². Yuqoridagi ma'lumotlardan Kazbion, Gozbun, Gozbon va Kursiy Rufning Gabaza-Gazaba tushunchalari turli asrlarga oid bir umumiy viloyatning nomi ekanligi anglashiladi. Ushbu viloyatning joylashgan o'rni xususida olimlar turlicha qarashlarni ilgari surdilar. I.Markvartning fikriga ko'ra, Kazbion Buxoro vohasida joylashgan, ko'pchilik olimlarning taxminiga ko'ra, Kazbion Qarshidan g'arbdagi Kaspi (o'rta asrlardagi Kesh) shahri xarobalari o'rnida bo'lgan³.

¹ Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. –М.: 1968-с.31.

² Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –Т.: 1990-с.56.

³ Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-T.: O'qituvchi.1996.B.84-85

Umuman, olimlar uzoq yillar mobaynida turli manbalarga asoslanib, Gabaza-Gazabani turli hududlarda joylashtirishga harakat qildilar. Bog'lon viloyatidagi Xulm hududi, Taliqon (Taxor viloyatining markazi) hududi, Qunduz daryosining Bog'lon va Ishkimish orasidan oqib o'tuvchi bir irmog'i bo'yidagi yerlar, hozirgi Afg'onistonning shimoliy-g'arbida joylashgan Kerki shahri orasidagi yerlar shular jumlasidandir. Arman manbalarini tahlil qilgan E.V.Rtveladze yuqoridagi hududlarning birortasi ham Gabaza viloyati hududiga to'g'ri kelmasligini ishonarli tarzda asoslab berdi. Uning fikriga ko'ra, Gazaba-Gabaza-Kazbion-bu tog'li joyning nomi bo'lib, u bir tomondan Darband hamda Temir Darvoza, ikkinchi tomondan Yortepa va G'uzor oralig'ida joylashgan. Eng so'nggi arxeologik hamda topografik tadqiqotlar natijalari, yozma manbalar va tangashunoslik ma'lumotlarini o'zaro qiyoslash natijasida Gabaza viloyatining joylashgan o'rnini yanada oydinlashtirish imkoni paydo bo'ldi. Ularga tayangan holda aytish mumkinki, Gozbon viloyati Janubiy So'g'ddan Amudaryoga qadar cho'zilgan keng hududda joylashgan tog'li viloyat bo'lib, u qator tog' tizmalaridan iborat bo'lgan janubi-g'arbiy Hisor tog' tizmini to'la qamrab olgan. Uning asosini Amudaryodan Temir Darvozaga qadar bo'lgan hududda yastanib yotgan Ko'hitang tizmasi tashkil etgan va uning shimoldagi chekka shahri arman tarixchisi Sebeos tomonidan shakli buzib yozilgan Kazbion shahri bo'lgan¹.

Keyingi paytlarda Kushonlar davlatining shimoliy chegaralari masalasi ham ma'lum darajada ko'rib chiqildi. Ushbu masala ilk bor 1938 yili S.P.Tolstov tomonidan ko'tarilgan edi. Uning fikricha, So'g'diyona Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Kushonlar saltanati tarkibiga qo'shib olingan. Keyinchalik u Xorazmda topilgan tangalarga asoslanib, Xorazmni ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Kushonlar davlatining shimoliy hududlari to'g'risidagi S.P.Tolstov xulosalari keyingi tadqiqotchilar uchun uzoq vaqt ilmiy asos bo'lib xizmat qildi, natijada qator boshqa o'lkalar ham ushbu saltanat tarkibiga kiritila

¹ Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-T.: O'qituvchi.1996.B.86.

boshlandi. Jumladan, 1950 yilga kelib K.V.Trever Choch viloyatini ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Tyanshan va Pomir-Oltoyda olib borilgan arxeologik qazishmalarning yakunlariga asoslangan A.N.Bernshtam Farg'onani ham Kushonlar davlati tarkibiga kiritadi. Keyinchalik Ustrushona ham Kushonlar imperiyasi tarkibida bo'lgan degan fikr paydo bo'ladi. 1962 yilgi Tuproqqal'ada olib borilgan qazish ishlarining natijalariga asoslanib, S.P.Tolstov milodning II-III asrlarida Xorazm Kushonlar tarkibida bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Bunda u Xorazmdan topilgan Kushon tangalariga, haykallar va rasmlarga asoslanadi¹. Lekin Xorazmdan hozirga qadar 70 dan sal ziyodroq kushon tangalari topilgan, xolos. Surxondaryoning kushon davriga oid kichik bir Oqqo'rg'on qishlog'i xarobasidan esa 160 dan ortiq tanga topilgan. Ushbu muammo xususidagi an'anaviy fikrlarga birinchilardan bo'lib Ye.V.Zeymal qarshi chiqdi. U Tojikistondan topilgan tangalarni har tomonlama tahlil qilib, Xorazm va So'g'diyona Kushonlar saltanati tarkibiga kirmagan degan xulosaga keldi.

Xorazmda topilgan tangalarni tahlil qilgan V.M.Masson ham Xorazm va Marg'iyona Kushonlar davlati tarkibiga kirmagan degan xulosaga keladi, lekin u So'g'diyona masalasida biroz ikkilanadi. M.Ye.Masson Xorazm, Choch, Farg'ona va So'g'diyonani Kushonlar davlati tarkibiga kiritishni asossiz deb hisoblaydi. Bunda u Kushon shohlari tangalarining Markaziy Osiyo hududlarida qanday tarqalganligiga asoslanadi. Darhaqiqat, Kushon shohlarining tangalari asosan Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida ko'p tarqalgan. Kushon tangalari ko'proq Shimoliy Baqtriya hududlarida tarqalgan, hatto chegara viloyat bo'lgan Janubiy So'g'diyona (Qashqadaryo vohasi)dan topilgan kushon tangalari sanoqlidir. Bu muammoni oydinlashtirishda 1986 yili E.V.Rveladzening Darbandda joylashgan mudofaa devorini o'rganish yakunlariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yerda tog' tepasida qurilgan 6,5 m qalinlikdagi chegara devori aniqlangan, bu devor So'g'diyona va Baqtriyani

¹ Я.Г.Гулямов. История орошения Хорезма.- Т., 1957, В.54-56

bog'lovchi asosiy yo'l ustida qurilgan va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Darband devori milodning I-II asrlariga oidligi aniqlandi, mazkur devor kushonlar tomonidan qurilgan bo'lib, u kushonlar davlatining shimoliy chegarasini belgilaydi. O'sha paytda bunday devorlar faqat markazlangan davlat tomonidan qurilishi mumkin edi, demak Shimoliy Baqtriya Kushonlar saltanati tarkibida strategik ahamiyatga molik chegara viloyati bo'lgan. Darband devorining kashf etilishi So'g'diyona, Dovon, Choch va Xorazmning Kushonlar saltanati tarkibiga kirganligini ko'rsatadi. Bu borada so'nggi arxeologik tadqiqotlarning natijalari ham guvohlik beradi¹.

Kushonlar davri Baqtriyasining aytarli hamma yodgorliklarida uchraydigan kushon tangalari, buddaviylik yodgorliklari va umuman moddiy madaniyat So'g'diyona, Farg'ona, Choch va Xorazmning moddiy madaniyatidan jiddiy farq qiladi. Agar ular bir davlat tarkibida bo'lganlarida edi, ularning moddiy madaniyati ham o'zaro yaqin bo'lgan bo'lardi. Shunday qilib, yangi tadqiqotlarga tayangan holda Kushon davlatining shimoliy chegaralari Hisor-Boysun tog'lari orqali o'tgan deb hisoblash mumkin. Yozma manbalardagi ma'lumotlar ham bu fikrga zid emas, chunki ularda Kushon shohlarining shimolga, So'g'diyona yoki Xorazmga yurish uyushtirganlari to'g'risida so'z yuritilmagan.

Kushonlar podsholigi davrida Shimoliy Baqtriyaning qadimgi shahar madaniyati ancha ravnaq topdi. Kushonlar davrida iqtisodiy, madaniy jihatdan rivojlanganligini hunarmandchilik buyumlari, uy qurish sohasidagi me'morchilik san'ati, suyurish inshootlari, ishlab chiqargan mahsulotlari orqali ham bilib olish mumkin. Bu davrda xususan, Termiz shahrining maydoni 350 gektar bo'lib, Dunyotepa va Chingiztepa xarobalari o'rnida joylashgan. Chingiztepa va Qoratepa orlig'ida Amudaryoga qurilgan chig'iriqlar yordamida shahar markaziga ichimlik suvi chiqarilgan. Suv chiqarilgach, Qoratepa ibodatxonasida maxsus hovuzlar yordamida suv tindirilib, keyin shahar tashqi devorining

¹ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –Т.: 1990.-с.16.

shimoliy tomoni bo'ylab qurilgan ariqcha orqali shaharga taqsimlangan. Milodiy II asrda podsho Kanishka Qoratepa yodgorligi o'rnida Budda ibodatxonasini qurdiradi. Mamlakatda qishloq jamoalari ancha kengayadi. Bu davrda vohada ikkita yirik markaz mavjud bo'lib, bulardan biri: Amudaryo bo'yidagi Tarmita (Termiz) bo'lsa, ikkinchisi esa Chag'onrud (Surxondaryo) bo'yidagi Dalvarzintepa shaharlari edi. Bu shaharlar Kushonlar davlatining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy hayotida aloxida o'ringa ega bo'ladi. Bundan tashqari Kampirtepa, Zartepa, Hayitobodtepa kabi shaharlar ham mavjud bo'lib, ushbu shaharlar mudofaa devorlari bilan o'rab olingan.

Birgina Surxondaryo viloyati hududida kushonlar davriga oid 130 ta yodgorlik mavjud bo'lib, shundan 80 tasi qishloqlar ko'rinishidagi manzilgohlar hisoblanadi. Mavjud yodgorliklar bu to'g'rida juda ko'p tarixiy ma'lumotlar beradi. 1932 yilda Amudaryoda «Октябрюнок» katerida ketayotgan chegarachilar Ayritomga yaqin joyda oqtosh ko'rganlar, bu nog'orachi tasviri uyib solingan tosh friz ekanligi aniqlandi. 1933 yilda bu topilmaga professor M. Ye.Masson boshchiligida arxeologik ekspedisiya yuborildi. Termiz shahridan 18 km sharqda balandligi 2-2,5 metr, qalinligi 1,5 metrli istehkom devorlari bilan o'ralgan I-II asrlarga oid budda ibodatxonasi topildi. U ohaktoshdan ishlangan ajoyib friz bilan bezatilgan edi. Ayiqtovon barglari orasida beshta sozanda surati uyib ishlangan. Nog'orachi bilan rang-barang kiyimlardagi sozanda ayollar surati ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu sozandalardan biri ud, yana bittasi arfa chalayapti, frizda qo'llarida gulchambaraklar hamda chiroyli idishlar ko'tarib ketayotgan qizlar tasvirlangan¹.

Ibodatxonada buddaning haykali va boshqa ibodatxona qismlari qatorida toshdan yasalgan odam haykallari topilgan. Ular musiqa chaluvchilar, hadyalar tashuvchi erkak va ayollarning haykallari bo'lib, ibodatxonaning tashqi tomoni karnizi shu haykallar bilan bezatilgan. Haykallarning qiyofasi va kiyimlarida

¹ V.M.Masson Srednyaya Aziya i Drevney Vostok.M.-L.,1964. –c.20

Hindistonga xos belgilar yorqin bo'lib, bu ajoyib san'at yodgorligi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar samarasidir.

1936 yilga kelib M.Ye.Masson boshchiligida tashkil etilgan tadqiqot kushon davri tarixi va madaniyati masalalarini izchil tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Xususan, Termiz shahrining rivojlanish pallasini kushonlar davriga to'g'ri kelishi va tarixiy topografiyasi aniqlandi. Tadqiqot ishlari Ayritom, Chingiztepa va Qoratepada olib borildi hamda tadqiqotlarda M.I.Vyazmitina, G.A.Pugachenkova, B.B.Piotrovskiy singari olimlar ishtirok qildilar. Ayritom peshtoqlarining topilishi Shimoliy Baqtriyaning antik davr musiqa san'ati haqida ham so'z yuritish hamda ularni Afg'oniston, Hindiston va Sharqiy Turkiston haykaltaroshligida uchraydigan shularga aynan o'xshash musiqa asbolari bilan qiyoslash imkonini berdi. Tadqiqotlar natijasida Termiz yaqinida daryo kechuvlari mavjud bo'lib, daryoning o'zi Yuqori Panj va Xorazm vohalarini bog'lovchi qulay suv yo'li bo'lganligi aniqlandi. Ko'hna shahar hududlaridan kushon podsholari Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka va Vasudevalarning ko'plab tangalari topildi. Tadqiqotning tashkil etilishi Ayritom va Eski Termiz yodgorliklarining dastavval va har tomonlama o'rganilishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'sha yillari bu yodgorliklarning joylashgan o'rni, ularga asos solingan vaqt, ularning boshqa hududlar bilan munosabatlari hamda moddiy madaniyati masalalariga aniqliklar kiritildi¹.

Shimoliy Baqtriyaning tarixi va madaniyatini o'rganishda Hamza nomidagi O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi (O'zSE) tadqiqotlarining o'rni va ahamiyati masalalari ham ko'rib chiqildi. 1959 yilda G.A.Pugachenkova tashabbusi bilan tashkil qilingan ushbu ekspeditsiya izlanishlarida turli davrlarda E.V.Rtveladze, B.A.Turg'unov, A.S.Sagdullayev, Z.A.Hakimov, YE.Nekrasova, V.A.Luneva, S.V.Levushkina, T.V.Belyayeva, S.A.Savchuk. D.Ilyosov singari olimlar ishtirok qildilar. Shimoliy Baqtriya hududidagi Dalvarzin, Xolchayon, Ko'hna Termiz, Kampirtepa. Zartepa, Ayritom kabi yodgorliklarda arxeologik

¹ G'iyosov T. G'. Qadimgi Hindiston tarixi, T., 2000.-B.41.

tadqiqot ishlari olib borildi¹. O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan baqtriya yozuvi yodgorliklarining topilishi, ayniqsa muhimdir. Bu borada 1977 yilda Ayritomdan topilgan haykal qoldiqlari va uning ostidagi olti qatorli baqtriya yozuvi fan olamida muhim voqea bo'ldi. Bu Surxkotal (Qiziltog') yozuvlaridan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi, aniq tarixiy mazmundagi Kushon-Baqtriya yozuvi bo'lib, unga ko'ra, inshoot majmuini o'rab turuvchi to'siq Shodiya (shaxsi noma'lum tomonidan qayta tiklangan va bu voqea Kushon podshosi Xuvishka hukmronligining to'rtinchi yilida sodir bo'lgan. Yozuv va haykalni Mirzod ismli usta ijro etgan².

II asrda Kushon davlati budda dinini Hindistondan Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonga tarqatib, uni davlat dini darajasiga ko'targan. III asrda Eronda moniylik dini vujudga keladi, lekin u Eronda uzoq tura olmaydi, uning tarafdorlari Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonga qochib o'tadi, ko'proq savdo yo'li ustidagi shaharlarda bu dinni tarqatadilar. Ba'zi arxeolog olimlar Markaziy Osiyoda topilgan ko'plab suratkashlik, rassomlik hamda haykaltaroshlik yodgorliklaridagi syujetlarning murakkabligiga qarab, ularni moniy dini bilan bog'lashga harakat qiladilar. Aslida bu hol Kushon imperiyasi davri (I-III asrlar) quldorlik tuzumining Markaziy Osiyo sharoitida eng rivojlangan davri bo'lganligi bilan bog'liqdir. Bu davrda, bir tomondan, ko'chmanchi qabilalarning sug'oriladigan yerlarda joylashishi kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, quldor zodagon jamoalar yerini tortib olib, o'zlashtira boshlaydi. Shu tariqa jamoalar o'z ichidan buzilib, butun-butun qishloqlar quldor zodagon dehqonlarga tobe bo'lib qoladi. Keyingi ilmiy izlanishlar natijasida Dalvarzintepa ko'hna shahriga mil. avv. III asrda asos solinganligi aniqlandi. Yunon-Baqtriya davrida bu yerda ko'handiz paydo bo'ladi. Kushonlar davriga kelib Dalvarzin me'morchiligi Baqtriya va Yunon qurilishi tajribalarining sintezini o'zida aks ettiradi³.

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.28.

² Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.17-18.

³ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-Т.:1978-с.33.

O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasining so'nggi yillardagi faoliyati natijasida antik davrga oid boy sopol majmualari o'rganildi va ilgari sopol idishlar kompleksi sanalariga aniqlik kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. 1972 yili kushonlar davri madaniyatining mashhur yodgorligi Dalvarzinda 200 metr devor qoldiqlari topilib, uning eni 4,6 m, balandligi 2,5 m keladi. Dalvarzintepa atrofida devor bilan o'ralgan ark xarobasi bo'lib, ark devorining uzunligi 130 m ga, balandligi esa 2,5 m ga tengdir. Dalvarzintepaning sharqiy qismida hatto 80 m masofada eni 4 metrlik tosh yo'l kovlab ochildi. Bulardan tashqari, bu yerda bir necha to'rt burchakli paxsa devorli uylar topildi. Dalvarzintepada topilgan 900 ga yaqin tosh o'roq, jez o'roq, yorgichoq, don uchun kovlangan o'ra hamda kuyib ko'mirga aylangan arpa, bug'doy, tariq, so'li donlari va boshqa ashyolar qadimgi dalvarzinliklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi¹.

Arxeologik topilmalar: suyakdan yasalgan buyumlar, jez igna va bigizlarga qarab hukm qilganda, aholining turmushida to'quvchilik va tikuvchilik keng taraqqiy etgan-ligini ko'ramiz. Dalvarzinliklarda mahalliy degrezlik va miskarlik ancha taraqqiy qilgan, chunki bu yodgorliklardan juda ko'p temir buyumlar: jez, o'roq, pona, pichoq, kamon o'qlarining paykonlari, nayza uchlari, zeb-ziynatlar, jez oynalar, bilakuzuklar, isirg'alar, cho'michlar, munchoqlar hamda turli xil jez buyumlar quyiladigan tosh qoliplar, Shuningdek, degrezlik qo'rasining beshta qoldiqlari topilganligi bularning yaqqol dalilidir².

Dalvarzintepadan topilgan manbalar ichida eng noyobi sopol ko'za bo'lib, unda 115 xil tilla quyma yombilar, zargarlik buyumlari, bilakuzuklar, isirg'a, erkak va ayollarning taqinchoq buyumlari bo'lgan. Bundan tashqari nafis ishlangan marjonlar, Yunon-Baqtriya zargarlik san'atining namunasi bo'lmish bo'yinga taqiladigan shoda ushlab turgan Geraklning bo'rtma tasviri tushirilgan buyumlar topildi. Dalvarzintepaning chekkaroq joyidan I asrda tiklangan Budda ibodatxonasi, shahristonidan Buddaning boshi, Bodxisatvaning mahorat bilan

¹ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-Т.:1978.-с.39.

² Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-Т.:1978.-с.40.

ishlangan mahobatli haykali, fil suyagidan tayyorlangan shaxmatning ikki donasi topildi. Buddaning boshi loy va gipsdan yasalgan bo'lib, balandligi 39 sm, eni 25 sm keladi. Bodxisatvaning (o'sha davrga oid) haykali ham loy va gipsdan yasaliib, rang bilan bo'yalgan. Uning balandligi 2 metr 18 sm, eni 89 sm. U bir paytlar Budda butxonasida turgan haykallar guruhidan biridir. Bu ko'hna topilmalar boshqa yodgorliklar bilan birgalikda 1988 yili Yaponiyaning Nara shahridagi «Ipak yo'li Naraga boradi» deb nomlangan xalqaro ko'rgazmada namoyish etilgan edi. 1995 yili esa ular Parijdagi muhtasham «Grand-Pales» («Katga saroy»)ning nodir galereyasida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi¹. Vayron bo'lgan antik davr devori ustida tiklangan binoning qachon qurilganligini juda aniqlik bilan belgilash mumkin. Ravoq ochilganda, g'ishtlar orasidan VI-VII asrga oid turk-sug'd tangalari chiqdi. Devor qurilishi uchun ishlatilgan to'rtburchak g'ishtlar ham shu davrga to'g'ri keladi. Dalvarzintepadagi antik davr istehkomining tashlandiq holatga kelib yemirilish jarayoni, aftidan, IV-V asrlarga to'g'ri keladi.

Mamlakat VI-VII asrlarda inqirozdan chiqqach, istehkom qulay, baland manzil sifatida qayta qurilib tiklanadi, shaharning o'zi esa xaroba bo'lib qoladi. Dalvarzintepa aholi maskani sifatida arablar istilosi chog'ida uzil-kesil tugadi, chunki arkda ham, shahristonda ham arablar kelganidan keyingi davrning izi yo'q. Chag'aniyonni 705 yili Qutayba bosib oladi va 737 yilda uning hokimi-Chag'onxudot arablarga o'lpon to'laydigan bo'ladi. Xalq orasida hozirgi Dalvarzintepa juda qadimiy mamlakat poytaxtining qoldiqlaridir, hukmdori afsonaviy qahramon Dol (Zol) bo'lgan. Arablar bu shaharni xalifa xazrat Alining bevosita rahnomoligida egallaganlar, so'ngra bu shaharda hayot butunlay so'ngan, degan naql yuradi. Dalvarzintepaning juda katta joyni egallaganligi, qurilishlar zichligi, arxeologik qatlamlar qalinligi mazkur qadimiy shaharning miloddan oldingi birinchi asrda va milodning dastlabki yillarida barq urib yashnab turgan viloyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Chag'oniyon qayd

¹ G'iyosov T. G'. Qadimgi Hindiston tarixi, T., 2000.-B.78.

etilgan antik davr ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan. Bu viloyat dastlab arablar istilosidan, oldingi vaqtga oid tarixiy manbalarda eslatiladi. VII asr (Xitoy) solnomasida shunday deyiladi. «Chingan-yen-na - bu mamlakat mashriqdan mag'ribga 400 li va shimoldan janubga 500 li ga yaqin maydonda yastangan. Poytaxti-aylanasi taxminan 10 li. Sharq tomonda Xvo-lo-mo degan joyga borib tutashadi», 10 li taxminan 5 km ga teng. Bu yerda gap Chag'oniyonning an'anaviy markazi Dalvarzintepa to'g'risida borayotgan bo'lsak kerak. Chag'oniyon janubda Termiz viloyatiga tutashgan edi. Shimolda esa VII asr manbalarida Xvo-lo-mo - Xvaramo viloyati joylashgan, arab mualliflari asarlaridan Xorun yoki Oxarun deb qayd etilgan. Ibn Xurdodbeh va Qudama (IX asr) Chag'oniyondan 6 (yoki 3) farsax uzoqlikda Navandak, undan 7 farsax masofada Xamovaron nomli joylar bo'lganligini yozadilar.

Dalvarzintepa antik davrda davlat ma'muriyati, yirik ibodatxonalar, iqtisodiy aloqa tarmoqlari, harbiy salohiyat mujassamlashgan katta tarixiy-madaniy viloyat markazi, yirik markaziy shaharlar sirasiga kirgan. O'zidan kichik bo'lgan ko'plab aholi qarorgohlari unga bo'ysungan. Shunday bo'ysunuvchi shaharlar sirasiga Xolchayon ham kiradi.

Ilmiy izlanishlar jarayonida buddaviylik dini va Budda haykaltaroshligi kushon davri Qandahar-Baqtriya an'analari o'xshab ketsa-da, ba'zan endigina paydo bo'layotgan mahalliy yangi uslub jihatlarini ham o'zida aks ettirishi aniqlandi. Qadimgi Baqtriya haykaltaroshligi masalalarini tadqiq qilishda Kampirtepadan ko'plab topilgan terrokota haykalchalar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ularni boshqa hududlardan topilgan san'at namunalari bilan qiyoslab o'rganish bu haykalchalar ellinizm tarixiy-madaniy doirasida bo'lganligini ko'rsatdi. Keyingi yillarda O'zSE kashfiyotlari natijasida Shimoliy Baqtriya Yunon-Baqtriya, Kushon, Kushon-sosoniylar davrlarida zarb etilgan ko'plab tangalar topilgan, hatto uncha katta bo'lmagan xazinalar ham aniqlangan. Ushbu topilmalar ichida Yunon-Baqtriya tangalari ko'p bo'lib, ular yaqin kunlargacha «Shimoliy Baqtriya hududlariga Yunon-Baqtriya davriga oid ayrim tangalar esa

tasodifan kelib qolgan», degan fikrlarni rad etishga asos bo'ldi¹. Kampirtepaning o'rganilishi natijasida yozma manbalarda qayd qilingan Oks bo'yidagi Pardagvi Kampirtepa o'rnida bo'lganligi taxmin qilindi. Bu borada Kampirtepadan Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan iskandar tangasining topilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xullas, uzoq yillar fanga noma'lum bo'lgan antik davr, xususan kushon davri tarixi va madaniyati O'zSEning tadqiqotlari tufayli dunyoga mashhur bo'ldi hamda tarix faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. O'sha davrga oid yana bir yodgorlik Xolchayon bo'lib, bu yodgorlik Surxondaryo viloyatining Denov tumanida topildi.

1959 yilning bahorida Xolchayon jamoa xo'jaligining remont-texnika ta'mirlash joyi kengaytirilayotganda buldozer kichik bir tepalikning chetini qirqqanida uchta tosh ustun bo'laklarini sudrab chiqargan, topilgan narsalar to'g'risida arxeologlarga xabar berilgan. 1960 yilda san'atshunoslik institutining professori G.A.Pugachenkova rahbarligidagi San'atshunoslik instituti ekspeditsiyasi Xolchayon tepaligini tekshira boshlaydi. Bu yerdan topilgan yodgorliklar olimlarning har qanday tasavvuridan oshib tushdi, fanga yana bir tarixiy boylik - Baqtriya badiiy madaniyatining ajoyib yodgorligi qo'shildi. Xolchayon topilmalarini ilmiy tekshirish jarayonida Xonaqohtepa, Qorabog'gepa, Maslahattepa kabi tepaliklar ochib o'rganildi. Xonaqohtepadagi saroy poydevori toshdan, devori esa qalin (1,04-2,30 m) xom g'ishtdan ishlanganligi aniqlandi².

Xolchayondagi tekshirishlar Baqtriya-Kushon zamonining binokorlik texnikasi to'g'risidagi ma'lum tasavvurni yanada kengaytirdi. Xolchayon saroyi arxitektura jihatidan g'oyat muhimdir. Asosiy zalining uch devori 3 m balandlikda oq ganch bilan suvalgan, undan yuqori qismlarda mahobatli haykallar joylashtirilgan. To'rtinchi devorning to'q qizil fonida oq ganchdan barg, gul, bir bosh uzum tasvirlanib, naqsh solingan. Saroyning asosiy zalidan

¹ Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской Бактрии. –М.:1984.-с.20.

² Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –Т.: 1990.-с.41.

chiqiladigan ayvondagi naqshlarda erkaklar surati ham bor: erkaklardan biri baqtriyalikka, yana biri mo'g'ulga o'xshaydi. Uch metr balandliqsagi panel tepasidagi haykal qizil va qora rang mineral bo'yoq bilan bo'yalgan. Haykalni to'la tiklash mumkin bo'lmadi, chunki uning mayda-mayda bo'laklarigina sakdangan. Haykallarning kattaligi odam bo'yining uchdan ikki qismiga to'g'ri keladi. Arxeologlar bu boshni yerdan ehtiyotlik bilan kovlab olganda ularga kipriklari osilib turgan, salgina g'ilay qora ko'zlar qarab turganday ko'ringan. Topilgan ayol haykali ham diqqatga sazovordir: yuzi keng, oq dubulg'a toshda hurpaygan sochlari aniq ko'rinib turadi. Haykal tanasidan topilgan parchada haykal ustidagi xalat yoki yoping'ich saqlangan, xalat tagida to'q qizil rang ko'ylak ustidan beldan yuqori oq tasma bog'langan. Bu haykal tanasi, vaziyati, qo'llarining turishi, dubulg'a va xalatiga qaraganda ma'buda Afina haykali bo'lsa kerak. Markaziy Osiyoga yunonlar ma'budasining qiyofasini makedoniyalik Iskandar olib kelgan, albatta. Xolchayon haykallari orasida Mitra, Nika va boshqa ma'budalarning qiyofalariga yaqin qiyofali haykallar ham bor¹.

Haykal parchalari orasida Xolchayon sozandalari haykallarining parchalarini ham uchratish mumkin. Baqtriya-Kushon yodgorliklarining yuksak san'atida ellin haykaltaroshligi bilan Parfiya san'ati an'analari ko'rinadi. Xolchayon haykali hozirgacha noma'lum desa bo'ladigan qadimgi Baqtriya san'atining allaqa-chonlar unutilib ketgan so'qmoq yo'lidagi yorqin izlaridandir. Xolchayonda tadqiqot olib borilgan bir nechta joyda Grek-Baqtriya podshohligi davri (miloddan avvalgi III-I asrlar) arxeologiyasi aks etgan. Demitriy tangasining topilishi hamda Qorabog'tepada mil. av II -I asrlarga oid imoratlar qayd etilgani bunga misol bo'la oladi. Xolchayonda ossuariy sifatida og'ir qopqoqli a'lo darajada tayyorlangan xum tanlangan. Uning ichida bir to'p ko'krak suyagi va shikastlangan bosh suyagi yotardi. Aftidan «ko'mishga tayyorlash» marosimida «Avesto»dagi mazdakchilik qonun-qoidalariga amal qilingan ko'rinadi. Murda dastlab yoritqich qushlar yoki maxsus boqilgan

¹ Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –Т.: 1990.-с.42.

murdaxo'r itlar yeb ketishi uchun qo'yilgan. So'ngra tozalangan suyak qoldiqlari suyakdonga joylashtirilgan.

Baqtriyaliklarning dafn marosimlari to'g'risida qadimiy mualliflarning ma'lumotlari deyarli yo'q. Strabon Onesikritning baqtriyaliklar tirik keksalarni maxsus boqilgan odamxo'r «go'rkov» itlar yemishiga tashlashlari haqidagi xabarini keltiradi. Bu odatni Aleksandr Makedonskiy ta'qiqlaydi, ammo ko'mish marosimi to'la tasvirlanmagan. Ayni paytda parfiyaliklar haqida yozganda, ularning «odatdagi ko'mish marosimi itlar yoki qushlar yeb ketishi»dan iborat, g'ajib tashlangan suyaklarni esa ular yerda saqlaydilar, deyilgan. Strabon yozgan ma'lumotga ko'ra Baqtriyadagi shahar devori orti toza bo'lgan, biroq ichki katta qismi «odam suyagi bilan to'lib-toshib ketgan ekan». Shunday qilib, gap marhumning suyagini qandaydir tashqi qabristoda emas, balki aynan aholi maskani ichida saqlash to'g'risida borayotir. Buni Xolchayondagi xum - ossuariyning qadimiy qo'rg'onning aholi zich yashaydigan qismida saqlanib qolganligi ham tasdiqlaydi. Antik davrda xumga solib ko'mish an'anasi Janubiy Tojikiston hududida (miloddan oldingi I-II asrlar) ham uchraydi. Biroq, u yerlarda yarim qoqlangan murda xumga solib ko'milgan, Xolchayonda esa faqat suyakning o'zi ko'milgan. Bu topilma arxeologik adabiyotlarda xumga solib ko'mish-ossuariy dafnalarga xos, faqat keyingi davrga taalluqli urf-odat emas, balki bu ko'mish marosimining boshqa turi deb qayd etilgan mulohazani to'la tasdiqlaydi. Umuman qadimiy Baqtriya aholisi orasida ko'mish marosimining turli shakllari mavjud bo'lgan¹.

Agar Yunon-Baqtriya zodagonlari asosan o'z e'tiqodlari va udumlari amal qilgan va Xolchayondagi ossuariy (idish)ga solib ko'mish marosimi bunga yorqin dalildir. Bu masalada Xolchayondan topilgan miloddan oldingi III-II asrlarga oid sanamlar haykalchalari, shuningdek, suyakdan ishlangan yalang'och ma'buda shakli aks etgan taqinchoq qadimda Sharqda mavjud bo'lgan Ona Xudoga sig'inish udumi bilan bog'liqdir. Ayni paytda, Ellin-Yunon badiiy tasvir

¹ Пугаченкова Г.А. Халчаян. -Т.: 1966.-с.29;

uslublarining Xolchayonning Baqtriya davri me'morchiligiga ta'sirini aks ettiruvchi topilmalar ham bor. Xolchayon taraqqiyotining yirik qurilish tadbirlari bilan bog'liq navbatdagi bosqichi miloddan oldingi II-I asrlarga taalluqlidir. Bu davr tarixiy jihatdan ulkan siyosiy voqealar bilan bog'langan, miloddan oldingi 140 yillarda Geliokning o'limi bilan Yunon-Baqtriya podshohligining inqirozi yuz beradi¹.

Yunon-Baqtriya podshohligining inqirozga uchrashi, aftidan, baqtriyaga saklarning dastlabki bostirib kelishi va o'zlari egallagan hududlarda o'troq bo'lib qolishi, so'ngra, yuyeyiylar bostirib kelib, saklarni Amudaryoning narigi sohiliga uloqtirib yuborishi davriga to'g'ri keladi. Bu zarba Xolchayonning ham taqdiriga o'z ta'sirini ko'rsatgan va mazkur joydan topilgan arxeologik topilmalarda, qatlamlarda o'z aksini topgan. Vaqt o'tishi bilan hayot o'z iziga tusha boshladi, yangi qurilishlar hamda ta'mirlashlar bundan dalolat beradi. Sak-yuyechjiy (yoki «tohar», qadimiy yozma arab manbalarida taxor bitiladi) davri Xolchayon tarixida arxeologik jihatdan aniq aks etgan².

Miloddan avvalgi II-I asrlar uchun xos bo'lgan «badaviy Geliokl» det ataluvchi bronza tangalarning topilishi aynan shu davrdagi gavjum shahar hayotidan darak beradi. Ularning shahristonning turli joylaridan topilganligi bu yerda har xil pullar muomalada bo'lganini va bozorning ehtiyoji keng ko'lamligini anglatadi. O'zining arxeologik-topografik qoldiqlarida miloddan oldingi II-I asrlarda Xolchayon yirik aholi maskani sifatida namoyon bo'ladi. I-II asrlarda, ya'ni Kushonlar davrida Xolchayon rivojlanishda davom etadi. Kadfiz II tangalarining topilishi, Kanishka, Xuvishka, Vasudeva (aksariyati katta va o'rtacha halqali) tangalarining ko'pligi va ularning ko'plari siyqalanib ketgaligi ko'p ko'lamda bozor muomalasida bo'lganligini ko'rsatadi. Milodiy II asr oxiri -III asr boshlarida Kushon imperiyasi inqirozga yuz tutadi. Bu jarayon Xolchayonda ayniqsa, yorqin iz qoldirgan. Qorabog'tepa istehkomi darvozasi katta yong'inda qolgan va uning izlari Kushonlar davri qurilishlarida

¹ Пугаченкова Г.А. Халчаян. -Т.: 1966.-с.34.

² Пугаченкова Г.А. Халчаян. -Т.: 1966.-с.36.

yong'in qatlami tarzida saqlangan. Xonqotepadagi o'rganib chiqilgan uchala imorat ham xarob etilgan yoki qulatilgan. Bu hol ayniqsa, saroyda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerda qimmatbaho ashyolar va ibodat buyumlari talon-taroj qilib ketilganligi bilan birga, taxtxonada tosh tagliklardan biri ag'darib tashlangan, ayvonda esa ustun tagliklari qo'porilgan, ba'zilar ulotirib yuborilgan. Demak, Xolchayon taqdirida arxeologik muhrlanib qolgan o'limga mahkumlik III asr boshida Kushon shohligini qamrab olgan umumiy voqea bo'lgan. Xolchayondan VI asr oxiri-VII asrga oid turk-sug'd turkumiga taalluqli ikkita tanga topildi. Ular Sug'd va Shoshdan topilgan tangalar bilan old tomon tuzilishi ikonografik jihatdan o'xshasa ham, ulardan ma'lum darajada farq qiladi. Bu tangalar Amudaryoning shimoliy qismidagi ayrim feodal viloyatlar turk xoqonligiga mansubligini anglatadi, tamg'alar va boshqa belgilardagi farq esa Chag'onxudotlar zarb qilgan ashyolarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Darvoqe, arablar 719 yili Amudaryo bo'yi viloyatlariga yetib kelgan vaqtda, turkcha «Yabg'u» unvonli Tish ismli Chag'oniyon hukmdori Tohariston qo'shinlariga bosh bo'lib turgan¹.

Arablar bosib olgan davrdan boshlab Xolchayon uzoq vaqt e'tiborsiz qoladi. XIII asr oxiri XIV asr boshida antik tepaliklardan ba'zilar qabriston sifatida foydalaniladi. XVI asrda Qorabog'tepaning shimoli-sharqiy qismi do'ngligida qandaydir mulk paydo bo'ladi. Shundan so'ng shahriston atrof hududi yanada botqoqlikka aylanib, bizning davrimizgacha o'zlashtirilmay qoladi. Xolchayonni tadqiq etish Baqtriya madaniy hayotiga, ayniqsa, uning badiiy madaniyatiga yangi ma'lumotlar kiritadi. Bu kuzatishlar Markaziy Osiyoning mazkur yirik viloyatida antik davr shahar qurilishining ba'zi jihatlarini qayta ochib beradi. Bu borada tarixiy ma'lumotlar nihoyatda kam. Eski Termizning qadimgi madaniyati zamirida ham kushon davriga xos ko'pgina yodgorliklar bor. Ular shu davrning yaqqol namunalaridan, sopol buyumlardan va moddiy madaniyatga doir boshqa narsalardan iborat. Toxariston vohasi

¹ Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. —М.: 1968.—с.64.

Kushon imperiyasining g'oyat katga markaziy viloyatlaridan biri bo'lgan. Toxariston tuprog'idan toxaristonliklarning yuksak madaniyatidan dalolat beruvchi yodgorliklar topildi. Hozirgi Termizdan 10 km keladigan joydagi Qoratepa g'oridan topilgan ajoyib yodgorlik ana shunday dalillardan biridir. Qazish ishlari Kushon davlati madaniyati to'g'risida g'oyat qimmatli ashyoviy dalillar va buyumli materiallar berdi. Yozma manbalardan ma'lumki, buddizm Markaziy Osiyoga azaldan kirib kelgan, arxeologlar o'tkazgan qazishlarda topilgan narsalar ham bundan dalolat beradi. Buddizmning Markaziy Osiyodagi ko'plab o'lkalarning madaniyat va san'at tarixida alohida o'rin tutganligi tarixdan aniq. Lekin bu haqda tasodifan topilgan ba'zi narsalarga qarab taxminiy fikrlar bor edi, xolos. Ko'pgina tekshiruvchilar, garchi buddizm Markaziy Osiyoda tarqalgan bo'lsa-da, jamiyat mafkuraviy hayotida muhim ahamiyat o'ynagan emas, degan fikrda edilar. Ammo Qoratepa yodgorliklari o'rganilgandan keyin bu fikrlar rad etildi: arxeologlar uzil-kesil Qoratepa g'orlari budda dini bilan bog'liq inshootdan boshqa narsa emas degan fikrga keldilar. Bu qanaqa inshoot o'zi? Amudaryo burilib oqadigan joyda Qoratepa tepaligini qazish natijasida mazkur inshootda budda me'morchiligi qonunlariga rioya qilinganligi ma'lum bo'ldi. G'or ichidagi ibodatxona tepasida ochiq yerga diniy marosimlar o'tkaziladigan bino qurilgan. Bu butun boshli inshoot Kushon Termizining katga g'or ichidagi ibodatxonasi bo'lgan, undagi yerto'la, hovli va ikkita g'or ichidagi inshoot yaxshiroq saklangan. Hovlini to'rt burchak deyish mumkin (20x18 m), hovlining g'arb tomoni qumtosh tepalikning uyilgan «tabiiy» devori bilan to'silgan¹. Xullas, g'arb tomondagi devori tamomila qumtoshdan iborat, hovlining sharq tomonidagi devori xom g'ishtdan iborat, hovlining sharq tomonidagi devori xom g'ishtdan tiklangan. Hovli devorlari bo'ylab usti yopiq, ustunli ayvon kurilgan, devor qoldiqlariga qarab hukm qilganda ayvon qizil buyoqqa bo'yalgan. Inshootning asosiy binosiga kiraverishda janub tomonidagi ayvon devorlari bo'ylab har ikki tomonda turli rangda, o'z kattaligida va tik

¹ Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. –М.: 1968.-с.72.

turgan kishilarning qomatlari tizilib turibdi. Yer tagidagi binoga hovlining janub tomonidan kiriladigan bo'lgan, binoning devorlari xom g'ishtdan terilgan. Bino uncha katta emas, u katga xonadan iborat, unga uch tomondan kiriladigan yo'laklar bo'lgan va yon tomoni bitga kichikroq mergel ohak-toshdan terilgan. Ostonaning har qaysi tomiga qora chiziqlar bilan nilufar surati solingan. U g'or ibodatxonasiga kiradigan darvoza tepaligining qumtosh qatlamida uyib ishlangan, darvoza qubballi bo'lgan bo'lsa kerak.

Qoratepa buddaviylik yodgorligi Eski Termiz majmuasi tarkibiga kirib, maydoni 7,5 ga ni tashkil qiladi. Tadqiqotlar natijasida Qoratepaga milodiy I asr oxirlarida asos solinganligi, yodgorlik janubiy, g'arbiy va shimoliy tepaliklardan tashkil topganligi aniqlandi. Qoratepaning o'rganilishi 1928 yilda A.S.Strelkov tomonidan boshlangan bo'lib, turli tanaffuslar bilan hozirga qadar davom etmoqda, hozirgacha to'qqizta ibodatxona ochib o'rganildi. Qoratepada ganchdan yasalgan haykallarning parchalari topildi, ular ichida g'alati bir vaziyatda buklanib turgan to'rtta barmoq saqlangan qo'l parchasi diqqatni o'ziga tortadi. Bu qo'l parchasi kattaligiga qaraganda kishi bo'yidan ancha baland haykalniki bo'lsa kerak. Buddha va unga doir manbalarning haykallari hovli o'rtasida joylashtirilgan bo'lishi mumkin. Oq marmarga o'xshagan mergel ohaktoshdan yasalgan arxitektura bezaklari (odam boshining barelyefi, akanfa bargi va boshqalar) diqqatga sazovordir. Bular Hindiston, Pokiston va Afg'onistondan topilgan arxeologik yodgorliklarga juda o'xshab ketadi. Yo'lak va ayvondagi naqshlarda ham xuddi shunday mushtarakliklar borligi sezilarli darajadadir. Qoratepa qazilganida undan budda dini marosimlariga oid buyumlar: toshdan yasalgan soyabon, qopqoqlar, nilufar surati va boshqa ko'plab narsalar topildi. Sopol buyumlar va devorlardagi yozuvlarning ham bu boradagi ahamiyati kattadir. Sopol buyumlardagi yozuvlarning ko'p hindcha kaxaroshti va braxma yozuvlaridir, ammo binodan kushon yozuvli popolok ham topildi. Kushon yozuvi mahalliy sharqiy fors tiliga moslashtirilib, yunon alifbosi asosida tuzilgani aniqlandi. Buddha ibodatxonasi to'satdan yuz bergan zilziladan yemirilgan bo'lsa ajab emas, chunki uning ko'pgina qismlari shunday ag'nab

yotibdi. Bu bilan arxeologlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayotini o'rganishda g'oyat qimmatli yodgorlikka ega bo'ldilar. Bundan tashqari Qoratepadagi budda yodgorligi Markaziy Osiyodagi qadimgi xalqlarning Hindiston va Xitoy bilan bo'lgan aloqalarini o'rganishga ham imkon beradi¹. Axir, Qoratepa hozirgi Afg'oniston va Hindiston, Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Qashqar orqali Xitoyga boradigan karvon yo'lining juda qizg'in, serqatnov joyida bo'lgan.

Kushonlar davrida Markaziy Osiyoga kirib kelgan budda dini bilan birga qadimiy mahalliy an'analar ham davom etavergan. Toxariston tuprog'idagi qadimgi Qayqubodshoh shahrida o'ng qo'lida qandaydir idish tutib o'tirgan xotin tasvirlangan sopol haykalcha topilgan edi. Taxminlarga qaraganda, bu Vaxsh daryosidagi ma'buda bo'lsa kerak, Dushanbe yaqinidan topilgan qadimgi to'pxona qabristoni mahalliy diniy e'tiqod bilan bog'langan. U yerda o'likni qabrga orqasi bilan cho'zib, boshini shimolga, oyog'ini janubga qaratib solganlar. Shunisi qiziqki, o'likning og'ziga yoki ko'kragiga kumush tanga pul qo'yganlar. Qadimgi ellin Yunonistonida va Yaqin Sharqdagi ellin mamlakatlari hududida ayni shunday odat mavjud bo'lgan. Bu odat va udumlar, rasm-rusumlar asta-sekin quldorlik davlatlari bo'lmish Yunon-Baqtriya podsholigi bilan Kushon imperiyasi taraflarga o'tib kela boshlagan. Qadimshunoslar topgan kumush falslar chambaraksimon ramka ichiga olingan do'ng gardishdir. Ichiga fil surati solingan, ustiga to'rt burchak yombi qoplangan, undagi tasvirga ko'ra, bo'ynida maxsus kaltak ushlab fil o'rgatuvchi yoki fil haydovchisi o'tirgan. Fil haydovchining boshida salla, quloqqa isirg'a, fil ustiga o'rnatilgan qulfnamo qandaydir narsa, jang davom etmoqda, jang payti minora tepasida ikkita jangchining kallasi ko'rinib turibdi. Birining boshida dubulg'a, qo'lida nayza, u harbiy boshliq bo'lsa kerak, yana biri bosh yalang, u harbiy askar bo'lsa ehtimol. Yunon-Baqtriya pullari aksar kumushdan, kamdan-kam hollarda bronzadan zarb qilingan, tanga pullarning bir tomonida podsho surati solingan. Do'ng peshonasi,

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.20-21.

qirg'iy burni, bo'rtib turgan dag'al iyagi uning kuchli iroda egasi ekanligidan dalolat beradi. Boshqa bir chaqa pulning bir tomonida Hindistonni zabt etgan Dimitriy podshoning lablari bir-biriga qattiq yopishgan, shiddatli muhr tasviri bilan zarb qilingan, ikkinchi tomonida podshoning yunoncha unvoni yozilgan. Keng ko'lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi davr tarixini davrlashtirish masalasini ilmiy asosda qayta hal qilish imkonini beribgina qolmay, balki quldorlik tuzumini hamda bu davrda savdo va hunarmandchilikning markazi bo'lgan shaharlar madaniyatini o'rganishda ham juda boy manbalar berdi. Arxeologik tadqiqotlar tufayli viloyat hududida quldorlik davriga mansub ajoyib tasviriy san'at obidalari ochildi. Termiz yaqinidagi Ayritomda topilgan toshga o'yilgan bo'rtma suratlar, haykallar va devoriy rasmlar hamda Denovdagi Xolchayon va Dalvarzintepadan topilgan loy va ganchdan yasalgan ko'pdan-ko'p turli haykallar Surxon vohasida qadimda o'ziga xos yuksak tasviriy san'at madaniyati yaratilganligini isbotlaydi¹. Surxondaryoda topilgan qadimgi san'at obidalari Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati bilan Eron, Hindiston, Yaqin Sharq va Kavkaz xalqlari madaniyatining bir-biriga ta'sir ko'rsatganidan hamda dunyo xalqlari madaniyatining yaratilishida Markaziy Osiyo xalqlari ham faol qatnashganligidan darak beradi. Qoratepadagi budda ibodatxonalaridan chiqqan qimmatbaho haykallar va boshqa tasviriy san'at obidalari, ayniqsa nodir va noyobdir. Bunday tasviriy san'at va haykaltaroshlik yodgorliklari o'z davrining hayotiy, mafkuraviy va diniy e'tiqodlari, madaniy va maishiy hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi qimmatbaho manba hisoblanadi.

Umuman, Qoratepa yodgorligining o'rganilishi Kushon davri Baqtriya tarixi va madaniyatini yoritishda muhim bir bosqich bo'ldi. Ana shu tadqiqotlar Termizning va umuman Baqtriyaning qo'shni davlatlar va o'lkalar bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalari rivoj topganligini yana bir karra isbotladi. Shimoliy Baqtriyaning antik tarixi va madaniyatini o'rganishda 1972 yili tashkil qilingan

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.20.;

ekspeditsiyasi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. V.M.Masson rahbarlik qilgan ushbu ekspeditsiya tadqiqotlarida Sh.Pidayev, T.Annayev. G.Koshelenko. K.Sobirov, V.Pilipko. V.Zavyalov singari arxeolog olimlar ishtirok qildilar. Baqtriya ekspeditsiyasi Kushon va ilk o'rta asrlar davri Baqtriya shahar va qishloqlarining tarixini o'rganishga, Baqtriyada urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq qilishga asosiy e'tiborni qaratdi. Ekspeditsiya o'z faoliyatini 1990 yillarning boshlariga qadar davom ettirdi, ekspeditsiya tadqiqotlari Shimoliy Baqtriyaning Zartepa, Mirzaqultepa, Oqqo'rg'on, Sho'rtepa, Hayrobodtepa, Hayitobodtepa singari shahar va qishloq xarobalarida olib borildi¹.

Baqtriya ekspeditsiyasining samarali kashfiyotlari natijasida ilk bor Kushon davri shahar me'morchiligi xususida nisbatan to'la ma'lumotlar olish imkoni paydo bo'ldi. Kushon davri qishloqlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va shaharlar bilan o'zaro munosabatlari masalalari yoritib berildi. Qishloq aholisining moddiy madaniyatini shahar aholisining moddiy madaniyatidan farq qilmasligi, shahar va qishloqlar o'rtasidagi tovar ayriboshlash, aksaran tanga pullarga asoslanganligi Oqqo'rg'on, Mirzaqultepa, Sho'rtepa yodgorliklari misolida isbotlab berildi. Me'morchilik va diniy e'tiqodlar masalasida ko'plab savollarga javob olindi. Mustaqillik davri arxeologik kashfiyotlari va ularning antik davr tarixi hamda madaniyatini o'rganishdagi ahamiyati masalalari ham atroflicha ko'rib chiqildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Shimoliy Baqtriya hududlarida arxeologik qidiruv-tadqiqot ishlarini keng ko'lamda va xalqaro miqyoslarda olib borish uchun yangi imkoniyatlar ochildi. O'zRFA Arxeologiya instituti xodimlari Fransiya va Germaniya olimlari bilan hamkorlikda Ko'hna Termiz, Sherobod vohasi yodgorliklarini hamda O'zbekiston san'atshunoslik instituti bilan Yaponiyaning Tokiodagi Soka universiteti xodimlari hamkorlikda Dalvarzintepa ko'hna shahrini o'rgandilar. Ushbu ishlar natijasida milodning boshlarida O'zbekistonning janubiga

¹ Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.24-25.

buddaviylik e'tiqodi jadal kirib kelganligi isbotlandi. So'nggi tekshirishlar natijasida Dalvarzintepa san'ati, moddiy madaniyati va tarixiga ko'pgina yangliklar kiritildi.

1999 yilda Kushon davri yirik shaharlaridan biri Kampirtepada arxeologik-qidiruv ishlari qayta tikalandi va hozirga qadar davom etmoqda. So'nggi tadqiqotlar Kampirtepaning yoshini aniqlash imkonini berdi., olimlarning taxmin qilishicha Kampirtepa mil. avv. IV asr oxiri-mil. avv. III asr boshlaridan e'tiboran faoliyat ko'rsata boshalgan. Shuningdek, Oksdagi Aleksandr shahri ham Kampirtepa o'rnida bo'lgan degan taxminlar ilgari surilmoqda. Kampirtepadan keyingi paytda topilayotgan metall buyumlar, sopollar, terrakotlar va tangalar Baqtriya tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1993 yildan boshlab o'zbek-german qo'shma arxeologik ekspeisiyasi xodimlari Jondavlattepa yodgorligida tadqiqot ishlari olib bordilar. Tadqiqotlar jarayonida me'morchilik, san'at, madaniyat, diniy e'tiqodlar hamda tovar-pul munosabatlari masalalari o'rganildi.

1998 yilda Qoratepadagi budda ibodatxonalari guruhini o'rganish bo'yicha Sh.R.Pidayev rahbarligida o'zbek-yapon qo'shma ekspedisiyasi tashkil etilib, hozirga qadar faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida olib borilayotgan hamkorlikdagi tadqiqotlar natijasida antik davrda Surxon vohasida ro'y bergan tarixiy-madaniy jarayonlar aniqlanib, fanga tatbiq etilmoqda. Kushon davri arxeologik yodgorliklaridan Fayoztepa, Eski Termiz devorlarining shimoli-g'arbida, Qoratepa tekisligining shimoli- g'arbidan janubi-sharqqa yo'naltirilgan holda qurilgan Budda ibodatxonasidir. Bu to'rtburchakli ziyoratgohning ichkari hovlisi ikki tomondan tirgak vazifasini o'tavchi yo'g'on sutunlar bilan ko'tarilgan bo'lib, maxsus ayvon bilan o'ralgan imoratdir. Ushbu Budda obidasining qurilgan payti - uysozlik, binokorlik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, umuman, shaharsozlik va me'morchilik rivojlangan Kushon-Baqtriya davlati davriga, ya'ni eramizning I-II asrlariga to'g'ri keladi.

So'z yuritilayotgan jamlanma asosan uch qismdan: 1. Kohinlar yotoqxonasi (hind-boxtar me'morchiligi an'analari asosida qurilgan). 2. Markaziy ibodatxona 3. Kohinlar jamoasi uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlaydigan xo'jalik va yordamchi imoratlardan iborat. Inshootning asosiy qismlaridan biri muqaddas, tabarruk va muborak diniy yodgorliklarni saqlaydigan joy- qo'ng'iroqsimon pastki qismi turtib chiqqandek ishlov berilgan hovonchadir. Hovoncha xom g'ishtdan terilgan, uning usti oppoq qorsimon ganch bilan suvalgan. Qizig'i, hovoncha ibodatxonaning boshqa jamlanmalari singari hovli markazida bo'lmay, balki hovlining tashqarisida - «Siymo uyi» budda haykalchasi dargohiga qarama-qarshi o'rnatilgan. «Siymo uyi»dan topilgan ohakgil toshidan mohirlik bilan ishlangan 118 kilogrammik Buddha haykali va uning ikki yonida qo'l qovushtirib, sig'inib o'tirgan ikki rohibning haykalchasi bor. Bu dargohdan havonchagacha g'isht va ohakgil toshlari parchalari yotqizilgan yo'lak o'tkazilgan.

Markaziy ibodatxona atrofida katta-kichik xonalar, ya'ni ziyoratgoh, hujra va jamoa yig'ini xonalari mavjud bo'lgan. Masjid ibodatxona bilan bir eshik orqali tutashtirilgan, eshik ibodatxona hovlisining g'arbiy devorida bo'lib shimoli-g'arbiy tomondadir. Eshikning hovli tarafdagi yonida katta-katta ohakgil toshi bo'laklaridan terib qurilgan hovuzcha bo'lgan. Hovuzchaning bir tomoni ikkinchisidan torroqdir, ayni shu tomonning pastki qismida og'zi ochiq sher boshi tasvirlangan suv jumragi o'rnatilgan. Bu hovuzcha ehtimol diniy marosimlarda yuvinib poklanish uchun qurilgan, ibodatxona tokchalarida esa ganch haykalchalar bo'lib, ularning ichi loy bilan to'lg'azilgan bo'lgan. Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, ana shu xil hovuzchalar hind budda sajdagohlarida tahorat qilish uchun ishlatilgan.

Arxeolog olim L.I.Albaumning fikricha, Kushon buddoviylik san'atida sher aksi va tasviri katta ahamiyatga molik bo'lgan, oqibatda aksar kulolchilik idishlarida sher kallasi, goho tog' takasi bosh qismi tasvirining tushirilishi an'anaga aylangan edi. G.A.Pugachenkova tomonidan Eski Termiz shaharchasidan topilgan qulog'i tik arslon gavdali qanotli bahaybat maxluq

rasmi tushirilgan ohakgildan ishlangan yaxlit qolipning topilishi yuqoridagi misolga dalil bo'ladi. Fayoztepadagi devorlar qurilishiga asosan paxsa va xom g'isht ishlatilgan, tomlar xarilar bilan yopilgan, tomlarning ba'zilarigumbazsimon shaklda bo'lgan. Majmua xonalarining devorlariga turli manzarali suratlar, haykallar bilan bezak berilgan. Har xil tabiiy ofat va jangu muhorabasinovlariga bardoshi yetgan ko'pgina haykallar tuproq uyumlari ostida saqlanib, ularning shikast topgan siniqlarigina bizning zamonimizgacha yetib kelgan, xolos. Saqlanib qolgan haykal bo'laklari va siniqlarining hajmiga qaraganda ayrim haykallarning bo'yi 4 metrgacha ekanini taxmin qilish mumkin, ular odatan qizil bo'yoqqa bo'yalib, ustidan tilla suvi yuritilgan.

Ana shu bo'laklangan va singan haykallar bilan birga topilgan Kanishka va Vasudeva I tangalari zikr etilgan vayrona Budda ibodatxonasi ehtimol Vasudeva I davrida yemirilgan degan xulosaga kelishga imkon beradi. Jamlanmaga tobin uchinchi-xo'jalik qismining devorlari monastr va ibodatxona devorlariga tutashtirib ko'tarilgan. Jamlanma xonalarining birida xom g'ishtdan qilingan eni 0,7 metr keladigan uzun supa bor, bu aftidan ovqatlanish joyi bo'lgan. Barcha xonalarining devorlari somon suvoq qilingan, faqat ikkitasi ganch bilan suvalgan, xonaning yeriga ganch va yirik qum qorishmasi to'shalgan. Qolgan ikki xonada tandir qoldiqlari va bezakli toshtovoqlarning sinig'i, boshqa bir xonada janubga qaratib o'rnatilgan suv quvuri, kulolchilik o'chog'i borligi aniqlandi. Demak ibodatxonaga suv quvurlar vositasida olib kelingan, hatto shunga o'xshash quvurlarning Qoratepa tomon, ya'ni janub tarafga yotqizilganligi (5-6 metrli quvur bo'laklari) kovlash natijasida kuzatilgan¹.

Ammo shaharga suv quvurlar orqali qaysi tomondan olib kelingani muammosi ancha yillar bahsli bo'lib turdi. Bu masalani 1945 yili o'rgangan olim D.D.Bukinich ham muammoning yechimini topolmay «Termizga suv qaysi tomondan kelganligi savoliga qoniqarli javob olish amri mahol» deyishdan

¹ Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской Бактрии. –М.:1984.-с.55.

nariga o'tmagan edi. Shu o'rinda V.A.Kozlovskiy, V.P.Nimkolayev, L.I.Albaum fikrlarini keltirib o'tish joiz, ular shaharga suv Amudaryodan olingan deyishadi. Lekin tarixiy asarlar buning teskarisini ko'rsatadi, chunonchi XV asr jug'rof olimi Hofizi Abro' «Termiz Chag'oniyon(Surxon)dan suv ichadi», deydi. Nihoyat termizlik yosh qadimshunos olim T.Annayev muammoning yechimini topishga muyassar bo'ldi. Salovotdan ma'lum miqdor yuqori(shimol)da - Tolitog'orada olib borilgan qazilma samarasi o'laroq Kushon davri Termiz va uning atroflarini sug'orish tizimi aniqlandi. Unga ko'ra suv Chag'onruddan Kattaqum orqali amalga oshirilgani, suv olish joyi va uning qo'riqlash istehkomi topildi.

Kushon davri Termizining I-II asrlarda qurilgan yirik Buddoviy jamlanmasi Fayoztepa II asrda budda kohinlari tarafidan tashlab ketilgan, degan aqida mavjud. Balki bu hodisalar tabiiy ofat - yer qimirlashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan taxminlar yuradi. Ammo dinidorlar muqaddas ziyoratgoh sanalmish havonchani o'z holicha qoldirib, uni e'tiborsiz tashlab ketmadilar. Havonchani saqlash maqsadida uning chor atrofini xom g'ishtli devor bilan o'rab oldilar va havonchanning uzoq saqlanishga imkon yaratdilar. Fayoztepa atrofida V asrda Termizda hukmronlik qilgan eftalitlarning qabristoni bo'lgan. Xullas Fayoztepa majmuasidan topilgan haykalcha dunyoning ko'pgina mamlakatlari, jumladan Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlari bo'ylab sayohatda bo'ldi. Endilikda u Toshkentda saqlanmoqda, umuman, Fayoztepa sirlarini ochish va tahlil etishda olimlardan L.I.Albaum, B.M.Masson, A.Asqarov, G.A.Pugachenkovalarning ilmiy izlanishlari katta samara berdi. Arxeologlar qiziqqanga qadar bu tepa nomsiz edi, arxeologlarga yaqindan yordam bergani uchun Surxondaryo viloyat o'lkani o'rganish moziygo'lining shu yillardagi direktori Rahmat Fayozovning otasi sharafiga bu tepa Fayoztepa deb ataladigan bo'ldi va shu nom bilan olamga tanildi.

Eramizning dastlabki asrlarida Hindistondan Markaziy Osiyo janubiga buddizm tarqaladi. Bu yerlarga diniy aqidalar bilan birga budda san'ati ham keladi. Shu davrlarda Kushon Termizida va uning devori atroflarida

buddizmning ko'plab ibodatxonalari, sajdagohlari, xonaqohlari va boshqa inshootlari qurildi. Termiz buddizmning muqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylandi. Zo'rmo'la Kushon Termiziqo'rg'on devorlari shimoliy sharqida qad ko'tarib turibdi. Qachonlardir shahardan tashqaridagi bu yerlarda buddizmning yuksak me'morchilik uslubidagi qurilmalarining butun majmuasi-Vixara-ibodatxona bo'lganga o'xshaydi. Lekin o'rta asr Termizida bu yerlar ekin maydonlari bo'lganlari ma'lum. Faqat bu yerning bosh qurilmasi muqaddas joy-ulkan havonchaga o'xshash budda muqaddas ashyolari saqlanadigan minora o'z qoplamalari va shaklini yo'qotib, asrlar osha yashab kelmoqda. Olib borilgan qazilma natijasi to'g'ri burchakli supa (tagkursi) ustiga o'rnatilgan silindrsimon minoradek havoncha o'z nihoyasida gumbaz bilan tugallanganligini ko'rsatadi. Bu inshoot asosan xom g'ishtdan terilgan bo'lib, uning tagkursisi (pyedestolli) sirti oq toshtaxtalar bilan qoplangan. Ehtimol, bu toshlar ohakgil bo'lib, Xoja Gulsuvar (Burgut tog'i)dan keltirilgandir. Havonchaning yuza qismi xom g'isht ustidan pishiq g'isht qoplangan va yuz (old) tomoni ochiq qizil rangga bo'yalgan. Hovonchaning diametri 14,5 metr, umumiy balandligi qachondir 16 metrga teng bo'lib, uning bo'yini xoda (tayoq)ga osilgan «Hurmat soyaboni» balandroq ko'rsatardi. Zo'rmo'laning bunyod bo'lishi ulug' Kushonlar davriga, ya'ni eramizning II asriga to'g'ri keladi. Uning qurilish ishlaridagi ko'lami Fayoztepanikidan ortiq va Termizdagi budda inshootlari qurilishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Zo'rmo'la minorasi Markaziy Osiyodagi shunday hovonchalardan va arxeologik qatlamlardagi minoralarga o'xshamaydigan yirik me'morchilik obidalaridandir. Zo'rmo'la hovoncha yoki minora ekanligi haqida olimlar orasidagi bahslar yechimi topilgani yo'q. B.N.Kostalskiy («Surxon-Sherobod vodiysi tarixiy-jug'rofik obrazi», Toshkent, «Vestnik irrigasii», 1930, ? 3, 4) bu masalaga shubha bilan qaragan. G.A.Pugachenkova Zo'rmo'lani buddizm minorasi deb atadi. B.V.Lunin Zo'rmo'lani «Kattatepa» deb atadi. Hovoncha ruscha stupaning tarjimai bo'lib, uni bu yodgorlikka qiyoslash to'g'ri kelmaydi. Zo'rmo'la atamasi ruscha «Zurmula» deb buzib ifodalanib kelinganga o'xshaydi.

U asli Zo'rmo'la, ya'ni «Katta mo'la» ma'nosini anglatadi. Mahalliy shevada «mo'la» so'zi loydan baland ko'tarib yasalgan, lekin minoradan kichik va undan farq qiladigan qurilma ma'nosini anglatadi. Dehqonlar oq jo'xori, tariq paykallarini ana shunday mo'lalardan palaxmon otib, hosilni qushlardan qo'riganligi ma'lum. Ana shunday mo'lalardan azonchilar din ixlosmandlarini ibodatga, nomozga chaqirganlar. Qadimda Zo'rmo'laning o'z nomi bo'lganligi ajab emas hozirgi nomi bu ulkan inshoot qoldig'ining mahalliy xalqlar tomonidan atalishidan olingan bo'lishi mumkin.

Taniqli olim A.S.Strelsov o'z asarini «Zo'rmo'la yoki Kattatepa» nomlashi bejiz emas. O'rta asr Termiz raboti o'rtasida, uning shimoliy devori yaqinida bir qator inshootlar bor ediki, ularning pishiq g'ishtlari allaqachonlar tashib ketilgan. Bu imoratlar eskidan (Kushonlar davrida) odamlar yashab kelgan joylarda qurilgan, bu yerlar I-IV asrlarda kushonlar tashlab ketgandan keyin bo'sh yotgan¹. Yuqorida aytib o'tganimizdek, II asrda yer qimirlashi oqibatida ko'pgina inshootlar, uy-joylar vayronaga aylandi., ular qaytadan tiklanmaydi, balki urf-odatga ko'ra irim qilingan yoki tiklashning iloji bo'lmagandir. Shu tufayli, buddizm ibodatxonalari, xonaqohlari va boshqa inshootlar qurilishi Kushon Termizining shimoliy sharqida Zo'rmo'la atrofida rivojlantiriladi. Ilk o'rta asrlarda bu yerlar tiklana boshlaydi, VI-VII asrlarda katta bo'lmagan, lekin o'z shakli bo'yicha diqqatga sazovor feodal qasri (qo'rg'oni)-saroyi quriladi. Ko'shkning pastki qismi 25x25 metr bo'lib, paxsa devordan ko'tarilgan, uning bosh o'qi bo'ylab yotgan markaziy dahlizi, uning ikki tomonida beshtadan uzunroq xonalari bo'lgan. Dahliz va xonalar gumbazlar bilan yopilgan., devorlarida teshiksimon derazalar bo'lgan. Ko'shkning ikkinchi qavatini yengil materiallardan yopilgan bo'lib, yozda yashashga mo'ljallangan². Termiz qo'rg'oni Markaziy Osiyo qasriga xos ko'shk edi, u ko'p asrlar kishilarga xizmat qildi. Islom dini rivoji davrida uning yaqinida qurilgan masjid va qo'shma xonalar ziyoratga keluvchilar uchun yotoqxona, sayyoh darveshlar uchun xonaqoh

¹ Стрельцов А.С. Сборник культуры Востока. Всп.1, М.:1927. -с. 27-30

² Стрельцов А.С. Сборник культуры Востока. Всп.1, М.:1927. -с.30

vazifasini o'tadi. Ko'shk vayronalari hozirgi Katta O'zbek traktining Eski Termiz hududi ostida qolib yo'q bo'lib ketdi.

Umuman, kushonlar davrida vohada iqtisodiy-siyosiy va madaniy hayot yuksak darajada rivojlangan. Kushon hukmdorlarining tinimsiz ravishda olib borgan urushlari, ko'chmanchilarning hujumlari hamda bo'ysundirilgan o'lkalarda mustaqillik uchun olib borilgan harakatlar oqibatida kushonlar saltanati inqirozga uchraydi. IV asr oxirlarida toxar qabilalari kushonlar saltanatiga xotima beradi.

II-BOB. 6-SINF TARIX DARSIDA “KUSHON PODSHOLIGI” MAVZUSINI O’QITISHDA QIYOSIY TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH.

2.1. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA’LIM SAMARADORLIGI OSHIRISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Bugungi fan-texnika taraqqiyoti jamiyatdagi o’zgarishlarning jadallashiga, jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishiga sabab bo’lmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasining jamiyat hayotiga ta’siri, uning o’zgarishi va rivojlanishida asosiy ahamiyati sezilmoqda. Tezkor o’zgarishlar va texnologiyalarning kirib kelishi, texnik va texnologik taraqqiyotni kuzatish va uzluksiz ta’limda joriy etishni talab etadi. Ta’lim jarayoni jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy omili sifatida faoliyat yuritib, jamiyat va uning barcha sohalarini o’zgartirishi va rivojlantirishi lozim. Zamonaviy bilim va malakalarni jamiyat va mehnat faoliyatida joriy etilishi taraqqiyotni harakatlantiradi. Shu ma’noda ta’lim sohasidagi yangiliklar va o’zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning omili hisoblanadi. “Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o’rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshladi. Busiz jamiyatimizning biron-bir sohasini o’zgartirishga kirishib bo’lmas edi”¹.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yuksak darajadagi bilimli va malakali kadrlari bo’lmagan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo’lmaydi. Demak, jamiyat va ta’lim sohasidagi o’zgarishlar o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, birining rivojlanishini ikkinchisi ta’minlab beradi. Shuning uchun ta’limga jamiyat

¹ Karimov I. “Barkamol avlod orzusi”. – T.: Sharq. 1998.-B. 41.

taraqqiyotining samaradorligini ta'minlab beruvchi omillardan biri sifatida qarash mumkin. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq ta'lim sohasiga alohida etibor berildi. Jamiyatda ta'lim ustuvor deb e'lon qilindi. Jamiyatda ta'limni rivojlantirish uchun turli islohotlar o'tkazilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish dasturi bo'lib xizmat qilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, o'qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog'liq. O'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog'lik vijdon, aql va kasb mahorati bilan bajarishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim omildir. "...zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"¹. Shuning uchun ham "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" maqsadi va vazifalarini amalga oshirishning birinchi bosqichida «Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish» belgilangan.²

Hozirgi kunda o'qituvchi zamon talablariga javob berishi, texnika va texnologiyalarning tezkor o'zgarishlarini his qila bilishi va o'z faoliyatini shu o'zgarishlar asosida tashkil eta bilmog'i lozim. Shuning uchun ham o'qituvchi faoliyatida innovatsion metodlardan samarali foydalanish bugungi kun talabidir. So'nggi yillarda pedagogika nazariyasiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi. Bu esa pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tushunchalarning aksariyati texnika va iqtisod sohalaridan kirib kelgan bo'lib, aynan shu sohalar insoniyat fikrining rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Bugungi kunda ta'limning iqtisodiyligi va

¹ Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. –B.7.

² Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.- B.7.

takomillashganligi, o'qituvchi va o'rgatuvchi texnika va texnologiyalar, ta'lim iqtisodi, o'qitishni kompyuterlashtirish haqida turli-tuman fikrlar bildirilmoqda.

“Innovatsiya – yangilik” so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga, tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq ho'jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo'lib, unga turli ta'riflar va fikrlar bildirilmoqda. Innovatsiya jamiyat paydo bo'lishidan boshlab o'zgarib kelmoqda. Ba'zi pedagoglar innovatsiya so'zini tor ma'noda ta'limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda. Ta'lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o'qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Fransuz olimi E.Bransuik pedagogik yangilikning uch turini ko'rsatadi:

1) yangilik sifatida butunlay yangi, ilgari mavjud bo'lmagan g'oya va harakatlar yuzaga keladi.;

2) ko'pchilik yangiliklar ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir muhitda g'oya va harakatlarni moslashtirishni, kengaytirishni yoki o'zgartirishni talab etadi;

3) pedagogik yangiliklar vaziyatga qarab sodir bo'ladi. Bu yangiliklar o'zgaruvchan talablar orqali qayta qo'yilgan maqsad asosida ilgari mavjud harakatlarni jonlantiradi va g'oyalarning samaradorligini ta'minlaydi.

Amerikalik Bil va Bolenlar pedagogik yangiliklarni faqatgina “materialdagi o'zgarishlarni o'z ichiga olgan yangilik emas, balki qarashlar va qo'llanishdagi kompleks yangilik” sifatida ta'riflaydilar. Bunda o'zgarishlar va kompleks o'zgarishlarga ta'rif berilgan. Marklund yangilik va o'zgarishlar orasidagi farq haqida quyidagicha tushuncha beradi: “Yangilik tushunchasi maktabda va ta'lim jarayonida o'zgarish so'zi bilan o'xshash holda qo'llaniladi. Agar bu o'zgarish maktab tizimini qamrab olsa, uni islohot deb qabul qilinadi.

Ammo har qanday o'zgarishni ham yangilik deb qabul qilib bo'lmaydi. Yangilik oldindan qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlashi lozim. Yangilik har doim bir yoki bir necha sifatli mezonlarni hosil qiladi".

Ensiklopediya va lug'atlarda ham innovatsiya (yangilik) tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, lug'at kitoblarida innovatsiya tushunchasi "Innovatsiya (lotincha inovatis) – bu yangilik, o'zgarish. Innovatsiya nimadir yangilik kiritish demakdir" deb ko'rsatilgan. Umumiy ensiklopediyada yangilik tushunchasi "yangi, yangilanish, yangilik – texnik va texnologik kashfiyotlar va yutuqlarning amaliyotga joriy etilishi" sifatida ta'riflanadi. Maxsus va pedagogik adabiyotlarda innovatsiya ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi mualliflar tomonidan turlicha ta'riflanadi. O'zbekistonlik olim pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxo'jaeva innovatsiya so'ziga ta'rif berib quyidagilarni e'tirof etadi: "Innovatsiya" (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik – bu bevosita: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar"¹.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida innovatsiya so'zi quyidagicha izohlanadi: "innovatsiya – inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro bo'lib, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mahoratni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, faoliyat doiralarida qo'llanilishi" deb ko'rsatilgan². "Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yanligilik va o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi"³.

¹ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. –B.49-50.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat milliy nashriyoti. -T.: 2002. –B.169.

³ Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.:2004.- B.3.

Yangilik va o'zgarishlar haqida ba'zilar yangilikni, boshqalar son jihatdan o'zgarishni, uchinchi toifa insonlar sifatning o'zgarishi, deb ta'riflaydilar. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining ham takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishini ta'minlab beradi. Shuningdek, yangilikka bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. O'quv yurtiga talaba yoki o'quvchi bilim olish uchun keladi, o'qituvchi esa talabaga bilim berishning eng qulay, samarali yo'llarini izlab, ta'lim jarayonini tashkil etadi. Pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlashlari, o'quvchilarga ta'lim berishlari uchun ta'lim jarayoniga yangiliklarni tadbiq etishni bilishlari shart. Shuning uchun innovatsiya – yangilik atamasi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Innovatsiyani ta'lim-tarbiya ishida to'liq va aniq qo'llash uchun uning mazmun, mohiyatini tushunib yetish lozim. Bu bir qadar vaqt talab qiladi. Innovatsiya orqali o'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlarini optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Ta'lim jarayonining samaradorligi esa ushbu o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishiga bog'liq. Ta'lim jarayoni innovatsiya orqali yuksak saviyada tashkil etilsa bo'lajak mutaxassislarda intellektual faollik namoyon bo'ladi. Intellektual faollik esa bo'lajak mutaxassisning har tomonlama tayyorgarlik ko'rishiga, bo'lajak faoliyatning ustasi bo'lib yetishishiga yordam beradi. (Intellekt latince intellectus – ya'ni aql, idrok, zehn degan ma'noni anglatadi. Bu degani kishining bilish faoliyati, tor ma'noda tafakkuri, fikr yuritish jarayonini shakllantirish demakdir.)

Zamonaviy pedagogikaning vazifasi o'quvchilar intellektual faolligini oshirishda ta'lim jarayoniga yangiliklarni qo'llashni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etish yaxshi samara bermoqda. Shuning uchun ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yangilikni tasniflash (klassifikatsiyalash) zarur. Ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara

beradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi. Interfaol usullar – (Interaction–inglizcha–aro, o'zaro, ast- harakat ma'nosini anglatadigan so'zlardan iborat) o'zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi. Interfaol usullarning bir qancha turi mavjud.

kichik guruhlarda ishlash usuli-bularga: “fikriy hujum” (“fikir janggi”), sinektika, mojaro metodi, “dumaloq stol”, “uch bosqichli intervyu”, muammolarni hal qilish metodi, “stol o'rtasidagi ruchka”, “galeriyani aylanish”, “akademik munozara”, “qor bo'ron” metodi, “asalari galasi”, “munozarali vaziyatni tahlil qilish” va boshqalar kiradi.

Bu metodlar bo'yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur. Ushbu guruh metodlari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o'quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning samarasi yangi o'quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

2.2. 6-SINF TARIX DARSIDA “KUSHON PODSHOLIGI” MAVZUSINI O’QITISHDA QIYOSIY TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH.

MAVZU: “KUSHON PODSHOLIGI” MAVZUSINI QIYOSIY TAHLIL METODI ASOSIDA DARS ISHLANMA QILISH

Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: Kushon podsholigi uning tarkib topishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish, hukmdorlar, ularning yuritgan siyosatlari haqida o’quvchilarda tushuncha hosil qilish

b) Tarbiyaviy maqsad:

O’quvchilar ongida milliy istiqlol g’oyasini singdirish. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Vatanga munosib farzand bo’lib kamol topishlariga hissa qo’shish

c) Rivojlantiruvchi maqsad:

Ma’suliyat, o’ziga talabchanilik ruhida tarbiyalash og’zaki nutqlarini rivojlantirish fikrlash qobiliyatlarini kengaytirish

Darsning uslubi: Noan’anaviy

Dars usuli: Qiyosiy tahlil, Aqliy hujum, Klaster

Dars jihozi: Darslik kitobi, sinf taxtasi, multivedio vositalari, plakatlar, tarqatma matireallar, xarita, krossvord

Dars shiori: Odamdan yuqori turarkan olam, Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam.

Dars didaktikasi: Testlar, tarqatma materiallar, rag’bat kartochkalari

Kutilajak natijalar:

O’qituvchi: Yangi bilimlar berish bilan birga talabalarning o’zlashtirishlariga erishish, qisqa vaqt ichida hamma talabalarni baholash. Keyingi darslarni qanday o’tishlariga tayyor bo’lish va talabalarning faol qatnashishlariga ko’proq

imkoniyat beradi. Odilona boshqarish zeriktirmaslik, doimiy nazorat va adolatli baholash.

O`quvchi: yangi mavzu bilan oldindan tanishish, olgan bilimlardan samarali foydalanish, mavzuni qiyosiy tahlil qilish, yuqori oliy salohiyatga ega bo'lish, xotirani charxlash.

**Kelgusi rejalar: O`qituvchi:** O`quv jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish konsepsiyalarini ishlab chiqdi va tadbiq qiladi. Mustaqil ishlab mavzuga doir tushunchalarni ko'paytiradi. Asosan o'zining pedagogik mahoratini oshiradi.

**O`quvchi:** O`tilgan mavzudagi yangi iboralarni o`rganib oladi. O`z sinfdoshlarining fikrlarini eshitib, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Unda o`tilgan mavzuda qo'llanilgan usullardan tashqari kelgusi darslarda yangi uslub va shakllardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

Darsning texnologik xaritasi

I. Tashkiliy qisim.	Salomlashish, o`quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash, darsning shiori, darsning oltin qoidasi.	5 daqiqa
II. O`quvchilarni faollashtirish.	O`tgan mavzuni mustahkamlashda "Aqliy hujum" metodi yordamida mavzuni mustahkamlash	6 daqiqa
III. Yangi mavzu.	Ma`ruza, qiyosiy tahlil, taqdimotlar yordamida tushuncha berish, krossvord, klaster, test savollari	15 daqiqa
IV. Mustaxkamlash.	Tarqatma matireallari yordamida o`tilgan mavzuni mustahkamlash	12 daqiqa
V. Dars yakuni.	Guruhlar darsdagi faolligiga qarab, yig`gan "a`lo" kartochkalari yordamda rag`batlanti-riladi, bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan test yordamida ishlanadi.	5 daqiqa

VI. Uyga vazifa.	Kushon podsholigi mavzusi yuzasiga doir hikoya yozish	2 daqiqa
------------------	---	----------

I. **Tashkiliy qism:** Sinf xonasiga kirib o`quvchilar bilan salomlashiladi, sinf xonasida dars o`tishga hozirlik ko`riladi, o`quvchilarning davomatlari olinadi, dars o`tishga barcha o`quv qurollari tayyorlanadi

II. **O`tilgan mavzuni mustahkamlash :** O`tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi. Bunda o`tilgan mavzu yuzasidan o`quvchilarga tezkor savollar beriladi. Jumladan,

1. Fanga kim tomonidan “Buyuk Ipak yo`li” atamasini olib kirgan?
(javob : nemis olimi Ferdinand Fon Rixtgofen)
2. “Buyuk Ipak Yo`li”gacha mintaqada yana qanday yo`llar mavjud bo`lgan?
lazurit yo`li, shoh yo`li
3. “Buyuk Ipak yo`li “ qaysi hududda uch tarmoqqa ajraladi ?
(O`zganda)
4. “Ipak yoli” uchun qachondan boshlab Eron bilan O`rta Osiyo o`rtasida qizg`in kurash kuchaydi.
(III asrdan boshlab)

“Aqliy hujum” dan so`ng savol-javobda qatnashgan o`quvchilar rag`batlantiriladi va darsning asosiy qismiga o`tiladi

III. Asosiy qism:

Yangi mavzu bayoni: Yangi mavzuni ma`ruza va taqdimotlar orqali bayon etish.

Kushon davlatining paydo bo'lishi uzoq vaqt olimlar orasida katta ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelgandi. Miloddan avvalgi I asrga kelib Katta Yuyechji uyushmasidagi beshta hokimlikda Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchayib va hududi kengayib bordi. «So'nggi Xan sulolasi tarixi» (Xitoy) ma'lumotlariga ko'ra, «Guyshuan hokimi Kloqzyuko qolgan to'rtta

hokimlikni birlashtirib o'zini Guyshuon hokimi» deb e'lon qildi. Kushon davlati podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmdorligi davrida Kushonlar saltanati yanada gullab-yashnadi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Mamalakatning poytaxti esa Peshovar (Afg'oniston) atrofida edi. Mamalakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyodagi ko'pgina viloyatlar, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, «Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi». Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomondan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hukmdorligini tan olib, unga o'zlarining garovga qo'yilgan odamlaridan yuborar edi. Kudzula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini zabt etadi. Shu tariqa, yirik davlat – Kushonlar saltanati tashkil topadi. Kudzula Kadfiz keyinchalik Qobul va Qandahor hududlarini egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoning Sho'rchi tumanida) shahri bo'lgan. Miloddan avvalgi 140-130-yillarda ko'chmanchi yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya davlati hududiga bostirib kirdilar. Tarixda bu qabilalar "kushonlar" nomi bilan tilga olinadi. Yuechjilarning Yunon-Baqtriya davlatiga bostirib kirishi uning uzil-kesil bo'linib ketishiga olib keldi. Kushonlar Shimoliy Baqtriya yerlariga ko'chib kelib o'rnamashdilar.

Kudzula Kadfiz o'z davlat chegaralarini kengaytirish va uning qudratini mustahkamlash maqsadida Amudaryoning chap sohili tumanlarini egallashga bel bog'ladi. U tez orada Parfiya, Afg'anistan va Kashmirni e'galladi. Kudzula Kadfiz 80 yoshida dunyoni tark etdi. Uning davrida Kushon davlatining o'z pullari bo'lmagan. Kudzula Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb e'tgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan ham bu davrdagi tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlarni uchratamiz. Keyinroq esa «Hukmdor Kadfiz» degan yozuvda tangalar zarb etilgan.

Kudzula Kadfiz vafotidan so`ng uning o`gli Vima Kadfiz taxtga o`tiradi. Bu davrda Kushonlar davlati Pokiston va Hindistonning markaziy viloyatlarini bosib oladi. Vima Kadfiz o`z nomidan tangalar zarb etadi. Unga atab tosh Xaykali o`rnatadilar. Bu haykal Hindistonning Matxura shahrida qad ko`taradi. Vima Kadfiz 30 yil podsholik qiladi. Mamlakatda pul islohotini o`tkazadi.

Vima Kadfizdan so`ng mamlakatni idora etish Kanishka zimmasiga tushgan. U podsholik qilgan davrda Hindistonning janubiy tumanlari, O`rta Osiyoning So`g`diyona, Xorazm va Choch viloyatlarini zabt etadi. Kanishka davrida «shohlarning shohi-ulug` xaloskor» yozuvi bilan tanga pullar zarb etiladi. Kanishka tangalari Ashgabatdan Xorazmgacha, bo`lgan Toshkent vohasigacha bo`lgan katta hududlarda ko`plab topilgan. Kushon davlati bu davrda e`ng gullagan va hududlari juda ham kengaygan davrini o`z boshidan kechiradi. Kanishka budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e`lon qiladi, buddizmni qabul qilib, uning saltanat miqyosidaga tashviqotchisi va himoyachisiga aylanadi. Kanishka davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko`chiradi.

Kanishka vafotidan keyin kushonlar taxtiga uning o`g`li Vasishka o`tirdi. U 4 yilgina podsholik qildi, xolos. Vasishkadan so`ng hokimiyat Xuvishka qo`liga o`tadi. U 32 yil hukmronlik qiladi. Undan so`ng Vasudeva podsholik kildi. Vasudeva 34 yil mamlakatni idora qildi. Bu davrga kelib Kushon podsholigi ikki qismga bo`linadi. Mamlakatning bir qismiga Vasudeva, ikkinchi qismiga Kanishka III hukmronlik qiladi. Buni ularning har ikkalasi nomidan zarb etilgan- tanga, pullar isbotlaydi. Kushon davlatining xalqaro elchilik va savdo aloqalari keng rivoj toptan. 99 yilda Kushon davlatining elchisi Rimga borgan. Kushon va Rim saltanatlari o`rtasida yaqin elchilik aloqalari bo`lgan. Ehtimol shu boisdan bo`lsa kerak, Rim podsholari II asr boshlarida Troyan kolonnalariga Rimga kelgan elchilar, savdogarlar, hunarmandlarning tasvirlarini tushirganlar. Ana shu haykal-tasvirlarda O`rta Osiyo vakillarining tasvirlari ham uchraydi. Baqtriya hududida rim tangalari va san'at asarlarining

namunalari ko`plab topilgan. Yuqorida Vima Kadfiz davrida pul islohoti o`tkazilganligi qayd etilgan edi. Bu Kushon davlati pulining joriy etilishini ta'minladi. Bu pullar oltin, kumush va misdan ishlangan edi. Oltin tangalar odatda tashqi savdo uchun zarb etilgan. Har bir oltin tanganing og'irligi 8 gramm bo`lgan. Kanishka davrida davlat tili Kushon-Baqtriya tili hisoblangan. Bunga qadar davlat tili yunon-(Kudzula davrida)cha, so`ngra yunon va hind (Vima Kadfiz davrida)cha bo`lgan. Kanishka davriga kelib tangalar baqtriya yozuvi bilan chiqqan. 100 yilda Kanishka budda dini ulamolarining qurultoyini chaqiradi va ularning fikr-mulohazalarini o`rganib, din sohasida dam islohot o`tkazadi. Ilgari zarb etilgan tangalar faqat xind xudosi (Shiva tasviri bilan chiqarilgan bo`lsa, endi tangalardagi tasvirlarda xudolarning soni ko`payadi. Bu hol Kanishkaning Buddha dinini davlat dini deb e'lon qilgan bo`lsada, ayni paytda odamlarga har xil dinlarga e'tiqodga ruxsat berilganligini ko`rsatadi.

Kanishka davrida mamlakatda budda diniga atab ibodatxonalar va ular yaqinida monastrlar qurilgan. Budda ibodatxonalarida o`sha zamon san'ati aks ettirilgan. 1933 yili Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devor peshtoqlariga sarg'ish – oq toshlardan haykallar o`rnatilgan. Haykallarda yaxshi kiyingan va marjonalar taqqan ayollaring do`mbira, rubob, chang, nay, kabi cholg'u asboblari chalayotgani tasvirlangan. Peshtoqning bir tomonida qulida gul, meva va boshqa narsalardan iborat dahyalar ko`targan odam haykallari o`rnatilgan.

IV. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN QIYOSIY TAHLIL

Kushon davlatining podsholari			
	Kudzula Kadfiz	Vima Kadfiz	Kanishka
Siyosiy hayot	Kushon podsholigiga asos solib, qo'shni mamlakatlarga harbiy yurishlar uyushtirdi.	Mamlakatni og'ir iqtisodiy inqirozdan olib chiqib mamlakat sarhadlarini mustahkamladi, islohotlar o'tkazdi.	Mamlakat siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohada yuksalib o'z cho'qqisiga erishdi. Xitoy, Rim davlatlari bilan elchilik munosabatlarini rivojlantirdi.
Iqtisodiy hayot	Mamlakat turli yurishlar natijasida inqirozli yillarni boshdan kechira boshladi. Uning davrida Kushon davlatining o'z pullari bo'lmagan. Kudzula Kadfiz tangalarni Rim saltanati va Parfiya podsholari zarb e'tgan tangalarga taqlid qilib chiqargan. Shu boisdan ham bu davrdagi tangalarda «Kudzula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlarni uchratamiz. Keyinroq esa «Hukmdor Kadfiz» degan yozuvda	Mamlakat iqtisodiy hayotini izga solish sohasida islohotlar o'tkazdi. Natijada iqtisodiy hayot jonlandi. Vima Kadfiz davrida pul islohoti o'tkazilganligi qayd etilgan edi. Bu Kushon davlati pulining joriy etilishini ta'minladi. Bu pullar oltin, kumush va misdan ishlangan edi. Oltin tangalar odatda tashqi savdo uchun zarb etilgan. Har bir oltin tanganing og'irligi 8 gramm bo'lgan. tangalarida homiy ma'buda sifatida buqa Nanda yonida turgan hind ma'budasi Shiva namoyon bo'ladi.	Kushon podsholigida iqtisodiy hayot o'z ravnaqiga erishdi. Buyuk Ipak yo'lida savdo-sotiq gullab yashnadi. Iqtisodiy yuksalish natijasida mamlakat hayoti farovonlashdi. Kanishka davrida «shoxlarning shohi-ulug' xaloskor» yozuvi bilan tanga pullar zarb etiladi. Kanishka davriga kelib tangalar baqtriya yozuvi bilan chiqqan. Dunyodagi uch imperiyaning biriga aylandi. Mitro-Quyosh ma'budasi hisoblangan. U tangalarda tizzagacha

	tangalar zarb etilgan.	Kanishka va Xuvishka tangalarida ma'budalar ahli jam bo'lib (Panteon-Ma'bad) Avesto diniga mansub otash, Vad, Mehr, Moh, Orlagno, Farr, sanamlar Nana va Ardoxsh, yunonlar Geliosi, hindlarning Buddasi, misrliklarning Soranisi aks etgan.	tushgan qalin chakmonda chapga qarab turgan holda tasvirlangan. Ma'budaning o'ng qo'li oldinga ko'tarilgan, chap qo'li bilan belini ushlab turibdi. Belida uzun qilich, boshi atrofida esa yog'du tasvirlangan. Tangalarda u uzun kiyimda tasvirlangan. Uning boshi va yelkasi atrofida lentalar xilpirab turibdi. Ma'budaning chap qo'li belida, belida qilich, tepaga ko'tarilgan o'ng qo'lida esa nayzani ushlab turibdi. Tasvirning orqasida "orlagno" deb yozilgan
Boshqaruvda erishgan yutuqlari	Xitoy, Parfiya, Rim davlati bilan raqobatlasha oladigan eng qudratli davlatga asos soldi Kushon podsholigi siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lgan davlat bo'lib, unda podsho dunyoviy rahbar bo'lish bilan birga bosh kohin ham edi.	Uning o'tkazgan pul islohati Kushon davlati pulining joriy etilishini ta'minladi. Bu davrda mamlakat hududi ancha-muncha kengaydi. Davlat satrapliklarga bo'lingan bo'lib, ularning satrapparn ayrim erkinliklarga ega bo'lgan.	Uning davrida mamlakat o'zining eng yuksak cho'qqisiga erishdi davlat poytaxtini Dalvarzindan Peshovarga ko'chiradi. Kushon podsholigi quldorlik davlati bo'lsada, unda qishloq jamoasi muhim o'rin tutgan.
Madaniyat	Ko'chmanchi hayot kechirgan besh qabilani o'troq	Buyuk Ipak yo'lida savdoning kengayishi natijasida oromiy	budda dinini rasmiy ravishda davlat dini deb e'lon qildi

	hayotga boshlab, madaniy rivojlanishni boshlab bergan. Haykal va rasmlarda, asosan, podsholar, podsho xonadoni a'zolari, boy-zodagonlar, sozanda va masharabozlar tasvirlangan. Imoratlarni bezash, naqsh solish borasida ham o'ziga xos tajriba to'planadi. Ayni shu davrda badiiy, san'at maktablari (Gandhara, Matxura, Baqtriya) shakllandi.	yozuvi kirib kela boshladi. Devoriy suratlarda esa diniy va bazm marosimlari, tabiat manzaralari, suvoriylar tasvirlangan. Kulolchilik taraqqiy etgan, topilgan sopol idishlar xilma-xilligi va o'zining nozik, jarangdorligi bilan alohida ajralib turadi. Amaliy san'at keng rivojlangan. Zeb-ziynat buyumlari, mehnat va jang qurollari yasash, mato to'qish taraqqiy etgan.	uning davrida davlat tili Kushon - Baqtriya tili deb e'lon qilindi bungacha davlat tili yunoncha, song yunon va hindcha bo'lgan. me'morchilik ancha yuksalib, turar joy binolari, ibodatxonalar va saroylar qurish ancha avj oladi.. Bu davrda mahalliy madaniyat bilan hind madaniyatining o'zaro aralashish jarayoni sodir bo'ladi. Ayniqsa, Budda dinining davlat dini deb e'lon qilinishi natijasida buddaviylik e'tiqodi bilan bog'liq ravishda haykaltaroshlik san'ati ancha yuksaladi. adabiyot va san'at homiysi bo'lib, Kashmir viloyatida Kanishkapur shahriga asos soldi. Uning saroyida mashhur buddaviy olimlar Pareva va Vasumitra, buyuk shoir va faylasuflar Ashvagxosha, Matricheta, Vagarjuva hamda Charaka yashab ijod qilgan.
--	---	--	--

Kushon va Qang` davlatlarining madaniyatining qiyosiy tahlili

**O`xshashlik tomoni :** Har ikkala davlatda ham musiqaga alohida e`tibor berilgan xususan,

**Qang` davlatida :** Milodiy IV— V asrlarga oid xitoy tilida yozilgan musiqa traktatlarida Buxoro (Ango), Samarqand (Qang`o) va Qang`lisijo yoki' Qang`li (Sirdaryoning o`rta oqimi, Toshkent vohasi) nomli maqomlar mavjud bo`lganligi uqtirib o`tilgan ko`pgina musiqa asboblari ham ayrim asbob nomlaridan nay, surnay, childirma, nog`ora, dutor, beshtorli cholgu asbobi (gusla) va boshqalar O`rta Osiyodan borgan deyish mumkin. Iqtisodiyotining gullab yashnashiga uning “Buyuk Ipak yo`li”da joylashganligi. Qang` davlatining ham har bir hukmdorlari o`z nomiga tanga zarb qildirgan

Kushon davlatida: 1933 yili Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devor peshtoqlariga sarg`ish – oq toshlardan haykallar o`rnatilgan. Haykallarda yaxshi kiyingan va marjonalar taqqan ayollarning do`mbira, rubob, chang, nay, kabi cholg`u asboblarini chalayotgani tasvirlangan. Bu esa kushon davlatida musiqa sohasi alohida o`ringa ega ekanligidan darak beradi. Iqtisodiyotining gullab yashnashiga uning “Buyuk Ipak yo`li”da joylashganligi. Davlatning har bir hukmdorlari o`z nomiga tanga zarb qildirgan.

Farqli tomonlari:


**Qang` davlatida:**Qang`lilar' e'tiqodi mafkurasida zardushtiylnk dini etakchi o`rinni egallagan. Ular Quyoshni muqaddas deb bilganlar va unga sig`inganlar. Qang` davlatiga oid arxeologik qazishmalar shuni ko`rsatadiki ko`pgina qazishmalar natijasida bu davrga oid topilmalar qurol aslahalar bo`lgan

Kushon davlatida : avvaliga Zardushtiylik dinida bo'lib, so'ngra davlat dini budda dini deb e'lon qilgan bo'lsada, ayni paytda odamlarga har xil dinlarga e'tiqodga ruxsat berilganligini hunarmandchilikda xususan haykaltaroshlikda ko'plab odamlarning haykallari yasalgan.

Dars davomida o'quvchilarga darsni yana ham tushunarli bo'lishi uchun Kushon podsholigiga oid taqdimot qo'yib beriladi.

Ma'ruza va taqdimot tugagach o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar va o'tilgan mavzu yuzasidan o'z bilimlarini sinab ko'radilar.

Bunda o'quvchilarni bilimlarini baholash uchun "Klaster" metodidan foydalanamiz. Har ikkala jamoaga ham mavzu yuzasidan tayyorlangan klasterlar tarqatiladi.



Mavzu yuzasidan tarqatma materiallar :

Budda dini ravnaqini O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoydagi holati bo'yicha taqqoslang?



O'zini "Shohlarning -shohi ulug` xaloskor" deb atagan Kanishka davrida Kushon, Xitoy, Rim davlatlarini siyosiy ahvolini qiyosiy tahlil qiling?



Kudzula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka tomonidan zarb etilgan tangalarni qiyosiy tahlil qiling? Farqli tomonlarini asoslab bering?



Kushon podsholigiga kim asos slogan hukmdor davridagi siyosiy vaziyatni tahlil qiling?



V. Darsning yakuni : Dars so'ngida faol qatnashgan tinglovchilarga oldindan rangli qog'ozlardan tayyorlab qo'yilgan rag'bat kartochkalari beriladi va baholanadi

VI. Uyga vazifa: O'tilgan mavzuni yana bir bor o'qib chiqish. Mavzu so'ngidagi savollarga yozma javob yozish. Mavzuga doir hikoya tuzish topshiriladi.

XULOSA

Kushon davlatining dastlabki o'zagini Baqtriya yerlari tashkil etgan. Kushonlar davlatining dastlabki poytaxti ham Sho'rchi tumani hududida joylashgan Dalvarzintepa yodgorligi xisoblanadi. Kushonlar davlatini yabg'u unvoniga sazovor bo'lgan hokimi mutlaq podsho boshqargan. Podshoning asosiy tayanchi yaxshi qurollangan harbiy qo'shin bo'lgan. Kushonlar qo'shini asosan otliq va piyoda qismlardan iborat bo'lib, qilich, xanjar, nayza va jangovar bolta bilan qurollangan. Kushonlar davlatida davlatni satrapliklarga bo'lib idora qilish tartibi saqlab qolingan. Kushon podsholari katga va kuchli qo'shinga tayanib, mamlakat chegaralarini kengaytirib borganlar. Olib borilgan istilochilik yurishlari natijasida Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyoning kattagina qismi Kushonlar davlatiga bo'ysundirilgan. Kushonlar saltanati podsho Kanishka davrida nihoyatda gullab-yashnaydi. Bu davrda Xitoy, Rim, Parfiya singari o'sha davrning nufuzli davlatlari bilan savdo-sotiq, iqtisodiy va rasmiy aloqalar yo'lga qo'yiladi, madaniy sohadagi aloqalar ham ancha kengayadi.

Xitoy tarixiy manbalarida qayd etilgan Guyshuanlar, milodiy 1 asrda Baqtriyada o'z hokimiyatlarini Kioszyuko rahbarligida o'rnatib, uning asli ismi Kujula Kadfiz edi. Kujula Kadfiz Xyumi, Shuanmi, Xeytun Gaofu sulolalaridan iborat to'rt hokimlikni ham o'ziga bo'ysundirdi. Baqtriyada hokimiyatni mustahkamlab olgan Kujula Kadfiz qo'shni viloyatlar bo'lgan So'g'diyona,

Marg'iyona, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismlarini istilo qildi. Kushonlar imperiyasini mustahkamlashda Kujula Kadfizning o'g'li Yangaochjen, ya'ni Kadfiz II muhim ahamiyatga ega bo'lgan ichki-tashqi siyosat yuritib, Hindistonni Hind daryosi quyi oqimlari, hatto Gang daryosi vodiysigacha bo'lgan yerlarni ham o'z ixtiyoriga o'tkazdi. Kushonlar davlati Kanishka hukmronligi davrida eramizning I asr oxiri-II asr birinchi choragida yanada kuchaydi. Kushonlar hokimiyatni hind zaminining janubiy viloyatlari, So'g'diyona orqali Farg'ona, Sharqiy Turkiston ham tan oldi. Kanishka davrida Turkiston o'lkasining asosiy hudularini o'z hokimiyatiga bo'ysundirib, Xorazm bilan iqtisodiy madaniy aloqalarni yana mustahkamladi. Kanishka olib borgan siyosatni Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II lar davom ettirib, siyosiy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qilgan. Biroq siyosiy kelishmovchilik, o'zaro nizo-janjallar, hokimiyat uchun kurashni kuchaytirish tufayli kushonlar saltanati asta-sekin zaiflashib borgan. Kushonlar saltanati siyosiy-ma'muriy boshqaruvi tizimi an'anaviy satrapiyalar tizimga moslashuv asosida qurilgan bo'lib, satraplar oliy hukmdor tomonidan uning ishonchini qozongan, chamasi o'z doirasi namoyandalari orasidan tanlangan. Shu bilan birga satraplik lavozimiga harbiy yurishlarda jonbozlik ko'rsatgan lashkarboshilar ham lozim topilgan vaqtlar bo'lgan, umuman olganda esa satraplar baqtriyaliklar orasidan bo'lishi shart edi. Kushonlar davlati armiyasi yaxshi qurollangan bo'lib, umumiy harbiy qudrati 150-200 ming kishini tashkil etdi. Kushon jangchilari uzunligi 1 metr dan oshiqroq har ikki tomoni o'tkir qilich, xanjar, nayza, jangovar bolta kabi qurollari bilan qurollangan. Kushonlar harbiylar suyak yo shox bilan qoplangan murakkab qo'sh kamonni ixtiro qildi. Bu kamon Uraloldi yerlari orqali Shotlandiyagacha, Sharqda Eron, Hindiston va Xitoygacha keng tarqalib harbiy ishlarda keng qo'llanildi. Kushonlar davrida mamlakatning iqtisodiy xo'jaligi keng taraqqiy etib, metallsozlik, shishasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlanib, oltin, kumush, qo'rg'oshin, qimmatbaho toshlar, qurilish xom-ashyolari qazib olish ancha takomillashib borgan. Kadfiz II ning amalga oshirgan pul islohoti natijasida 8 grammlik oltin tangalar, kumush,

bronza tangalar savdo muomalasiga chiqarildi. Madaniy taraqqiyot natijasida yozuvlar ancha takomillashib so'g'dcha, xorazmcha, parfiyacha, baqtriyacha yozuvlar mukammallashib, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda ijobiy natijalarga erishdi. Kanishka davrida mamlakatda budda diniga atab ibodatxonalar va ular yaqinida monastrlar qurilgan. Budda ibodatxonalarida o'sha zamon san'ati aks ettirilgan. 1933 yili Termiz yaqinidagi Ayritomdan topilgan ibodatxona tashqi devor peshtoqlariga sarg'ish – oq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Haykallarda yaxshi kiyingan va marjonalar taqqan ayollarning do'mbira, rubob, chang, nay, kabi cholg'u asboblari chalayotgani tasvirlangan. Peshtoqning bir tomonida qulida gul, meva va boshqa narsalardan iborat dahyalar ko'targan odam haykallari o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan Budda haykalining siniqlari topilgan. Bu yerdagi haykallarning ishlanish uslubi, kiyim-kechagi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlari hamda bu xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarining rivoji madaniy hayotda juda ravshan aks etganini ko'rsatadi. Bu faqat Ayritomdagi haykallar timsolidagina emas, balki Xorazm, Farg'ona, Sug'd, Parfiya yerlarida topilgan turli xil buyumlar, madaniy obidalar, topilmalar timsolida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shahar qurilishiga katta e'tibor berilgan, me'moriy-monumental, tasviriy va amaliy san'at, haykaltaroshlik rivojlanish borasida eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan. Ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Mamlakatda tinchlik va osoyishtalik hukmronligiga erishilganligi tufayli dehqonchilik va uning yurak tomirlari hisoblangan sug'orish inshootlarini barpo etish davlat tasarrufida bo'lgan. Hunarmandchilikning deyarli barcha tarmoqlari keng ko'lamda yuksalgan. Bu davrda etnik madanayati, tili va dini bir xil bo'lgan xalqlarning siyosiy jihatdan birlashishi, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etgan. Turli xalqlar madaniyatining chatishishi natijasida bu yerda o'ziga xos yangi madaniyat shakllanib, rivoj topadi va keyingi asrlar madaniyatining taraqqiyotiga ham zamin bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kushonlar davri - O'rta Osiyo xalqlarining oldinga davrdagi taraqqiyotiga yakun yasadi. Shundan so'ng Sharq va G'arb

madaniyatlarining o'zaro ta'siri yangi tarixiy bosqichga qadam qo'ydi. Ellin madaniyatining an'analari Kushonlar davrida ijodiy jihatdan qayta shakllandi va yangicha talqin qilina boshlandi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda 6-sinf tarix darsida "Kushon podsholigi" mavzusini zamonaviy innovatsion texnologiyalar vositasida dars ishlanmasi tayyorlandi. Dars ishlanmasida Kushon podsholigining tashkil topishi, taraqqiyot omillari haqida ma'lumot berilib, o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim, ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Umumta'lim tizimida tarix fani manbalarini o'quvchilarga o'rgatish orqali bilim doirasini kengaytirish, fanga qiziquvchilarni ko'paytirishga erishish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Dars ishlanmada mavzuga oid ko'rsatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat orqali ularni nazorat qilish va bilimni baholash ishlari amalga oshirildi. Ushbu dars ishlanmani yoritishda "qiyosiy tahlil" metodidan unumli foydalanildi. O'quv jarayonining mazmuni sifatida kushon podsholigini siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi, jamiyatning eng zarur darajadagi bo'g'inlaridan biri diniy tuzilmalarni o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirib berildi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabda tarix darslarini o'qitishda o'quvchilar ongiga tarixiy tafakkur haqidagi bilimlarni singdirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari ilmiy jihatdan yoritishni mazkur bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi qilib olindi va tom ma'noda bu maqsadga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". -T.: Sharq. 1998.B.32.
2. Karimov I. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.:T. 6.- T.: Ўзбекистон, 1998.— 429 б.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008. B.176.
4. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oily saodatdir. -T.: O'zbekiston. 2015 yil. -B.304.
5. "Barkamol avlod orzusi". – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.-B. 248.
- 6.Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2007. – Б. 183.
7. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi.-T.: Sharq.2001.-B.368.
- 8.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi. 2006.-B.160.
- 9.Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии.-Т.:1990. – С.160.
- 10.Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. –T.: Iqtisod-moliya. 2006. B.520.
11. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-T.: O'qituvchi.1996.-B.112
- 12.Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. -T.:Akademiya. 2008.B.146.
13. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob. T.:Sharq. 2010.- B.360.

14. Kostetskiy V.A., Sagdullayev A.S. Tarix. Qadimgi dunyo.-T.: “Yangi yo’l poligraf servis” 2013.-B.192.
15. Omonov H.T., Xo’jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya. 2009 yil.- B.240.
16. Farberman B.L, Musina R.G, Jumaboyeva F.A. Oliy o’quv yurtlarida o’qitishning zamonaviy usullari. O’quv-uslubiy qo’llanma. T.: 2002. -B.192.
17. Зиямухамедова С, Зиямухамедов Б. Новая педагогическая технология. - T.: Абу Али ибн Сино. 2002.-B.120.
18. Ishoqov M., Pardayev K. O’zbekiston tarixi. o’quv qo’llanma. –T.:2009 yil.- B.120.
19. Гафуров В. Г. Кушанская эпоха и мировая цивилизация. –М.: 1968.- с.160.
20. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati.-T.: Fan.1990.B.40.
21. Я.Г.Гулямов. История орошения Хорезма.- T.:, 1957, -с.96.
22. Ставицкий В.Я. Кушанская Бактрия, проблемы култура.-М.: 1977.-с.120.
23. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Далварзинтепа-кушанский город в юге Узбекистана.-T.:1978.-с.226.
24. Литвинский Б.А., Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской Бактрии. – М.:1984.-с.78.
25. Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Тохаристан. –T.: 1990.-с.144.
26. Култура и исскуства древного Узбекистана (каталог виставки), кн. 1 и 2, -М.: 1991. –с.432.
27. G’iyosov T. G’. Qadimgi Hindiston tarixi, T.: 2000.-B.168.
28. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2005 yil.-B.304.
29. Tolipov U.Q. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – T.:2008.-B. B.246.
30. Eshov B. O’rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. T.:Fan va texnologiya. 2008.-B.120.

31. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2003, 5-jild.
32. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2001, 2-jild.
33. Rahmatullaeva O, Salomov J. Yordamchi tarix fanlari. O'quv qo'llanma T.: 2012 y. B.150.
34. Болдыров А.Н., Брагинский И.С. Рукописная книга в культуре народов Востока. книга вторая. –М.:Наука.1988.-с.317.
35. Массон В.М. Средней Азии и Древний Восток. М.-Л.: 1964. –с.120.
36. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.:2004.-B.130.

MUNDARIJA:

Kirish.....	___ bet
I-bob. Kushon podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyoti va tanazzuli.....	___ bet
1.1. Kushon podsholigining tashkil topishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi.....	___ bet
1.2. Kushon podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti omillari.....	___ bet
1.3. Kushon podsholigining tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi.....	___ bet
II-bob. 6-sinf tarix darsida “Kushon podsholigi” mavzusini o'qitishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanish.....	___ bet
2.1. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligi oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	___ bet
2.2. 6-sinf tarix darsida “Kushon podsholigi” mavzusini o'qitishda qiyosiy tahlil usuli tayyorlangan dars ishlanmasi.....	___ bet
Xulosa.....	___ bet
Adabiyotlar ro'yxati.....	___ bet

